

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports

RESEARCHBIB IMPACT
FACTOR: 6.4 / 2023
SJIF 2023: 3.778



Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN (E): 2181-4570



• <http://universalpublishings.com>



Research Science and
Innovation House

"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

JANUARY 31, 2025

VOLUME 3, ISSUE 1

2023



+998888082107



<http://universalpublishings.com>



editor@universalpublishings.com

**"Journal of Universal Science Research" scientific-methodical journal:
31.01.2025.**

In this collection, the articles accepted for the "Journal of Universal Science Research", Volume-3, Issue-1, 2025, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Euarasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.


Basis: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” LLC**



EDITORIAL TEAM

Editor-in-chief, **Eshkaraev Sadridin Chorievich** - Head of the Department of Medicine and Natural Sciences, Doctor of Philosophy in Chemistry, Associate Professor, Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan. . [ORCID esadir_74@rambler.ru](mailto:ORCID_esadir_74@rambler.ru)

1. Editor of medical sciences **Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China
2. Editor-of technical science, **Eshkaraev Ulugbek Chorievich** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.
3. Editor of medical sciences **Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada
4. Editor of technical science **Babamuratov Bekzod Ergashevich** - associate professor of the Department of Physical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Technical Science, Termez, Uzbekistan.
5. Editor of medical sciences **Donata Kurpas**, Wroclaw Medical University, Poland
6. Editor of chemical sciences **Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany
7. Editor of medical sciences **Mirella Minkman**, Vilans, Netherlands
8. Editor of chemical science **Furkat B. Eshkurbonov** - Termiz state university of engineering and agrotechnology, doctor of sciences in chemistry, Professor of technology of organic substance and materials on their basis, Termez, Uzbekistan.E-mail: furqateshqurbonov@gmail.com
9. Editor of medical sciences **Roberto Nuño**, Director Investigación y Formación Fundación Gaspar Casal, Spain
10. Editor-of Economic, **Otamurodov Shavkat Tillayevich** - Vice-rector of Termiz University of Economics and Service Doctor of Economic science, Termez, Uzbekistan.
11. Editor of medical sciences **David Perkins**, University of Newcastle, Australia
12. Editor-of Social and humanities, **Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Social and humanity Science, Termez, Uzbekistan.
13. Editor of medical sciences **Otamurodov Furqat Abdukarimovich**, Director of Termiz Branch of Tashkent Medical Academy, Termez, Uzbekistan Doctor of science in Medical Sciences, Termez, Uzbekistan.
14. Editor of medical sciences **Robert Henderson**, University of Arizona
15. Editor biological sciences **Nurova Zamira Annakulovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy. Termez, Uzbekistan Doctor of biological science, docent, Termez, Uzbekistan.
16. Editor filological sciences **Chris Kennedy**, University of Chicago
17. Editor of medical sciences **Turabayeva Zarina Kenjabekovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy, doctor of Philosophy medical sciences, Termez, Uzbekistan.
18. Editor of Sociology science **Eryigitova Lobar Qodirovna**Head of the Department of Social Sciences and Physical Culture of CAMU International Medical University
19. Editor filological sciences **Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.
20. Editor of physics-mathematics-sciences **Bobamuratov Ulugbek Erkinovich** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Philosophy physics-mathematics-sciences, Termez, Uzbekistan.
21. Editor of medical sciences **Akhmedov Kamoliddin Khakimovich** Dean of the Faculty of Treatment No. 1 of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy, Candidate of medical sciences, associate professor
22. Editor of medical sciences **Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor




23. Editor of Humanitarian science **Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich** Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
24. Editor of technical sciences **Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.
25. Editor of pedagogical sciences **Sultonova O'g'ilyo Nabiyevena** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Pedagogical sciences, Termez, Uzbekistan.
26. Editor-of medical sciences, **Sultonov Ravshan Komiljonovich** - Termiz University of Economics and Service Doctor of Philosophy of medical science, Termez, Uzbekistan. e-mail: ravshansultonov605@gmail.com
27. Editor of pedagogical sciences **Eshkoraev Kahramon**- Chirchik state pedagogical University Doctor of Philosophy in pedagogical science, Termez, Uzbekistan e-mail: eshqorayev1987@mail.ru
28. Editor of technical sciences **Rakhmankulov E. Jasur**-Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com
29. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Jurakhon N. Nadzhiev** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Doctor of Agricultural Sciences DSc.
30. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Dilshod T. Jumanov** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Candidate of Agricultural Sciences.
31. Editor of technical science **Nomozov K. Abror** - Doctor of Philosophy to the Termez Institute of engineering and technology, Termez, Uzbekistan. e-mail: abrnomozov055@gmail.com
32. Editor of technical science **Misirov Kh. Zafar** Doctor of Philosophy to the Termez Institute of engineering and technology, Termez, Uzbekistan. e-mail: zafarmisirov1986@gmail.com
33. Editor of technical science **Shaymardanova A. Mokhichekhra** - Termiz institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in technical science. E-mail: mokhichekhrashaymardanova@gmail.com
34. Editor of Philology sciences **Mariya D. Bekbergenova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
35. Editor of Philological sciences **Zulfiya K. Ktaybekova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
36. Editor of Medical sciences **Dilorom A. Khurmatova** - Termez branch of Tashkent Medical Academy, doctor of Philosophy in Medicine(PhD)
37. Editor of Technical science, **Sahomiddin. Z. Hodjamkulov** - Termez Institute of engineering and technology Doctor of philosophy in technics, Docent of Technology Inorganic Substance and Materials on their Basis. E-mail: xodjamkulovsahomiddin@tiet.uz
38. Editor of Pedagogical sciences **Nodira. N. Musaeva** - Bukhara State University, doctor of science in Pedagogics(DSc), docent of Theory and methodology of professional education.
39. Editor of Technical science, **Berdimuratov. T. Umid** - Termiz institute of engineering and technology, Doctor of Philosophy in technical science. E-mail: umidberdumu5@gmail.com
40. Editor of technical sciences, **Diyorov. G. Husan** - Termez Institute of engineering and technology Doctor of Philosophy in technical sciences. E-mail: husan_diyorov88@mail.ru
41. Editor of technical science, **Rustam. R. Karimov** - Termez Institute of engineering and Technology Doctor of Philosophy in technical Science, Docent of the Agriengineering and Chemical Technologies Department
42. Editor of Historical sciences, **Kholiyarov. Ch, Tulkinjon** - Head of the "Social and Humanities" Department of the Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Historical science. E-mail: txoliyarov@mail.ru
43. Editor of Technical Sciences, **Zakir. R. Khudaikulov** - Termiz Institute of Engineering and Technology, docent of the General Electric Engineering, doctor of philosophy in Technical science.
44. Editor of Technical Sciences, **Bobomurodov. R. Mirkomil** - Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Technical science.
45. Editor of Technical sciences, **Qalandarov Ro'zimurod Qurbonovich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, professor, Candidate of technical sciences





46. Editor of Philology Sciences, **Allambergenova. A. Guljakhan** - Karakalpak State University, Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Karakalpak language.
47. Editor of Pedagogical sciences, **Feruza. B. Muzafarova** - Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Docent in theory and methodology of physical education and sports training
48. **Iroda G. Abdullaeva** - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan
49. **Jumaniyazova Navbahor Baxtiyarovna** - Editor of Biological sciences Doctor of philosophy (PhD) in biological sciences, Urganch State University, Uzbekistan, navbahorjumaniyazova@gmail.com
50. **Dilnoza A. Sadanova** - Editor of Philosophical sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan
51. **Shirin K. Babadjanova** - Editor of Biological sciences Doctor of philosophy (PhD) in biological sciences, Urganch State University, Uzbekistan
52. **Saidjanova.K. Zebo** - Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
53. **Ataxanova Venera Radjapovna** - Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
54. **Hulkar K. Gaipova** Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
55. **Rakhimova Z. Muminakhon** - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Social Work and Philosophy
56. **Toshaliyev B. Kakhramon** - Editor of historical sciences Termez State University Doctor of Philosophy in historical Science, Termez, Uzbekistan e-mail: kahramon19821801@mail.ru
57. **Matsaidova Sayyora Khudaiberganovna** - Editor of pedagogical sciences Urganch State University, Faculty of Natural and Agricultural Sciences, Department of Geography, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
58. **Razzakov Qahramon Bekdurdievich** - Editor of biological sciences Department of Biology, Faculty of Natural Sciences, Urganch State University, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor
59. **Abdullayev Ulmasbek Ravshanbekovich** - Editor of biological sciences Department of Biology, Faculty of Natural Sciences, Urganch State University, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor
60. **Khudaykulov. Z. Rustam** - Editor of pedagogical sciences Senior lecturer of the Department of Transport Engineering and Logistics of Termiz State University of Engineering and Agro-Technology
61. **Makhmud. R. Karimov** - Editor of technical sciences , docent of agricultural and meliorative machinery. Mechanization of agricultural and reclamation works. Doctor of philosophy in technical sciences. Termiz State University of Engineering and Agro-Technology
62. **Yugayev. M. Shavkat** - Editor of technical sciences , Doctor of philosophy in technical sciences. Termiz State University of Engineering and Agro-Technology.
63. **Abdirashidov A. Aslidin** - Editor of technical sciences , PhD, senior lecturer, Termiz State University of Engineering and Agrotechnology, Department of Transport Engineering and Logistics, Uzbekistan
64. **Shavkat. S. Turaev** - Editor of technical sciences , PhD, Senior lecturer, Department of "Construction of Buildings and Structures", Faculty of Civil Engineering and Irrigation, Termez State University of Engineering and Agrotechnology
65. **Eshkuvvatov. A. Ulugbek** - Editor of technical sciences , PhD, Termez University of Engineering and Agrotechnology Head of the Department of Road Engineering
66. **Rakhimov. Kh. Rashid** - Editor of technical sciences, Termiz state university of engineering and agrotechnology, doctor of philosophy in technical sciences(PhD).



ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA QO‘LLANILGAN ANTROPONIMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Cho‘liyev Ruhillo Abdullayevich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: mazkur maqolada antroponimlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, badiiy matn tarkibida bajaradigan vazifalari, xalq milliy madaniyatidagi o‘rni, ma’no ifodalay olish nuqtayi nazaridan o‘ziga xos ahamiyati borasidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: onomastika, antroponimlar, laqablar, taxalluslar, ong, tafakkur, tarix, madaniyat.

Аннотация: В статье рассматриваются антропонимы, их видовые характеристики, классификация, функции, которые они выполняют в составе художественного текста, их роль в национальной культуре народа, а также их особое значение с точки зрения выражения смысла.

Ключевые слова: ономастика, антропонимы, прозвища, псевдонимы, сознание, мышление, история, культура.

Abstract: this article provides considerations on anthroponyms, their specific characteristics, classification, functions they perform in the structure of a literary text, their place in the national culture of the people, and their specific significance in terms of expressing meaning.

Keywords: onomastics, anthroponyms, nicknames, pseudonyms, consciousness, thinking, history, culture.

Tildagi so‘z va atamalarning paydo bo‘lishidagi birinchi bosqich onomosiologik jarayon sanaladi. Onomastika ma’lum bir tildagi atoqli otlarning mazmunini ifoda etadi. U ma’lum davrdagi tilning tarkibidagi atoqli otlar hisoblanadi. Antroponimlar ma’lum bir shaxsga qo‘yilgan atoqli nomlar sifatida qaraladi. Antroponimlarning ta’rifining keltirilishi hozirga qadar faqat bir tomonlama qaralish natijasida yuzaga kelganligini



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

kuzatish mumkin. Antroponim sifatida shaxslarga qo'yilgan nomlarni lingvokulturologik jihatdan turlicha tasniflash mumkin.

Ma'lum bir nom aniq bir shaxs yoki shaxslar tomonidan aniq bir subyektga qo'yiladi, bu nom aksariyat hollarda atash birligi vazifasini bajaradi, xolos, uning semantik jihatlari nazarda tutilmaydi, bu esa antroponimlarni leksik birlik sifatida qaralmasligiga sabab bo'lmoqda. Bunday birliklar o'z va o'zlashma qatlamga oid bo'lishi mumkin. *Turg'un, Mahkam, Kalvak, Toshpo'lat, O'sar, Salim, Murod, Orif, Samad, Abdulhakim* kabi qator nomlarni keltirishimiz mumkin. Quyida antroponimlar haqida keltirilgan ta'rif va mulohazalarga e'tibor qarataylik. "Antroponimiyalar — odamlarning shaxsiy yoki meros qilib olingan individual belgilar sifatida nutqda ishlatiladigan so'zlardir. Ular tilning leksik tarkibining ajralmas qismi bo'lib, "jamiyat ongini uning to'liq hajmida aks ettirish va ifodalashning yagona vositasi"dir Demak, antroponimlar har qanday shaxsning individual shaxsiy belgilarini o'zida jamlar ekan, u qandaydir ma'no va vazifada maqsadni amlga oshirishda xizmat qilishi kerak. Ijtimoiy borliqda tug'ilgan bolaga ma'lum bir nom berish uning hayotiy holatiga ta'sir etmasligi mumkin. Masalan, Umid deb nomlangan bola ulg'aygach, bunday nomga xos biron bir belgila ega bo'lmasligi ham mumkin. Islomiy nom berilgan bola voyaga yetgach, mutlaqo o'zga din vakili ham bo'lishi mumkin, bu shaxsning qanday ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy borliqda yashashiga aloqador bo'ladi, albatta, Biroq badiiy asar tarkibidagi antroponimlar haqida bunday fikr yuritib bo'lmaydi, chunki yzoiladigan asarda ijodkorning maqsadi muhim ahamiyat kasb etadi. Antroponimning badiiy asardagi lingvomadaniy belgisining bir necha izohlarini keltirish mumkin.

Millatning uzoq davr mobaynidagi qadriyatlarini sanalgan nomlarning qo'llanilishi, bu o'z navbatida shu millat vakili bo'lgan o'quvchida ham tushunarliklik hissining yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Jumladan, "Uloqda" hikoyasida *Turg'un, Mahkam, Salim, Murod, Eson, Sobir* kabi qator ismlarda ham milliy madaniyat, ham ijodkorning badiiy maqsadi aks etib turadi. Uloqni xush ko'ruvchi bu bola tutumida mustahkam, *turg'un*, o'zgarmasdir, akasining ismida ham shunday semik xususiyatlar jamlangan. Yetuk chavandozlarning nomi sifatida berilgan *Salim* va *Murod* so'zlarida ham antroposentrik qarash to'liq amal qiladi.

"Salim[a.-sog'lom, butun,shikastlanmagan; haqiqiy, to'g'ri] 1.km. Sog'lom odam; sog'-salomat, to'rt muchasi but kishi.

Aqli(yoki fikri) salim 1)to'liq, tiniq aql; 2)aqli raso, miyasi butun odam/





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

2 Salim(erkaklar ismi).” Boshqa ismlar haqida ham shunday izohlarni keltirishimiz mumkin, asardai chavandoz yetik, komil, boshqalardan bu sohada ancha ilg‘or ekanligi anglashiladi, a yni shu ma‘noni ifodalash uchun ham shu nom qo‘llanilgan. Esonboy ismi asarda contrast yarata olgan, bu nomni keltirish orqali, asardagi voqealar rivojidadagi vaziyat nuqtayi nazaridan istalgan bir shaxs, u qanday nomga ega bo‘lishidan qat‘i nazar kutilmagan holatlardan mufofaza etilmasligiga ishora qilgan. Badiiy matnda har qanday qo‘llangan so‘zga ma‘lum bir semantik va lingvomadaniy yuk mavjud bo‘ladi.

Rivojlanish va faoliyat yuritish xususiyatlari tufayli odamlarning shaxsiy ismlari jamiyatning turli davrlaridagi ongini boshqa til birikmalariga nisbatan yanada to‘liq va mutaxassis tarzda aks ettiradi.

“Ong — bu fikrlashning mazmuni. Ong — bu jamiyatning shaxsiy va umumiy amaliyoti, umumlashtirilgan va aks ettirilgan shaklda, ya‘ni tushunchalar shakliy holatida bo‘ladi. Jamiyat ong — bu jamiyat mavjudligini jonli aks ettirish, insoniyatning ruhiy taraqqiyot darajasining umumiy xususiyati, tarixan belgilangan bir davrdagi umumiy xususiyatdir”.

Milliy antroponimiya jamiyatning ijtimoiy tashkiloti, iqtisodiy taraqqiyoti, madaniyati va etnografiyasi haqida keng ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Milliy shaxsiy ismlar tizimining informativligi, uning o‘tgan davrlarni aks ettirishdagi qobiliyati tarixiy jihatdan o‘rganilganida ancha oshadi.

Turkiy tillar doirasida antroponimlarni o‘rganish jarayoni XIX asr oxiri XX asr boshlarida boshlangan deb aytilsa-da, aslida bu XI asrda dastlabki tadqiqot sifatida Mahmud Koshg‘ariyning “Devon ul-lug‘otit turk” asari yuzaga kelgan, keyingi davrlarda yaratilgan turkiy lug‘atlarda ham antroponimlarning izohi keltirilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk va shajarayi tarokima” asarida ham bir nechta turkiy antroponimlar izohi keltirilgan.

Abdulla Qodiriy o‘z asarlarida antroponim birliklar sifatida kishi ismlaridan tashqari ellikdan ortiq taxalluslarni ham qo‘llaydi. Muntazam taxalluslar miqdori 36 tani tashkil etadi. Taxalluslarni ham shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: o‘zgaruvchan va o‘zgarmas kabi.

Valixo‘ja, G‘ulomshayx, boyvachcha, yigit, komissiya, Azimboyvachcha, ko‘mirchi, attor, og‘a-ini, qassobliq, qandolatchi, o‘qig‘uchi, talaba, muxbir, Dumbul(KUI); ushbu birliklar tarkibidagi yigit, ko‘mirchi, og‘a-ini, o‘qig‘uchi kabilar sof turkiydir, Valixo‘ja, attor, talaba, muxbir arabcha, G‘ulomshayx, boyvachcha,





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Azimboyvachcha, qassobliq, qandolatchi soʻzlari qorishiq, *Dumbul* esa forsiy birlik hisoblanadi.

Taxallus sifatida ishlatilgan *Dumbul* soʻzining izohiga eʼtibor berilsa, ijodkorning bu nomni qoʻllashdan koʻzlagan maqsadi bir qadar oydinlashgandek boʻladi:

Dumbul [f-toʻliq pishmagan don, dukkak] 1 Donli ekinlar, mevalarning taʼm kirib qolgan, lekin hali yetilib pishmagan holati.

2 Hali qotmagan, sutmi-qatliq boʻlib qolgan(don haqida)

3 koʻchma Aqlsizroq, tentaknamo, devonasifat. *Dumbul* odam.

4 Hayot tajribasi boʻlmagan; xom, gʻoʻr.

5 koʻchma Mazmunan pishiq-puxta emas, qiyomiga yetmagan. *Dumbul* asar.(OTIL, 662).

“Ay, xuday urgʻanlar”, “Poʻstkallasi”, “Qishloqqa qopingni oʻgir” kabi asarlarida *Dumbul*, “Azob boʻsagʻasida – yigʻi-sigʻi kechasi”da Julqunboy *Dumbulboy* oʻgʻli, “It urushdirish ishlari”da *Dumbulboy* oʻgʻli, “Chiqib bozor aro poshshoyi tanga, kirib oʻlturdi ketkan jon-tanga...” asarida *Dumbul* devona, “Mahkamayi sharʼiyada holva-talqon masalasi”da Domla *Dumbul* taxalluslaridan foydalanadi. “Jadid adabiyoti namoyandalari” rukni ostida chop etilgan Abdulla Qodiriy asarlarida keltirilgan qirq sakkizta asarda Julqunboy taxallusini qoʻllangan. Hajviy asarlar satirik va yumoristik kabi turlarga boʻlinadi. Abdulla Qodiriy yashagan ijtimoiy-mafkuraviy muhit juda ham murakkab ekanligi hammamizga maʼlum. Shunday tahlikali paytda davrning muhim muammolarini koʻtarib chiqish uchun hajviy asarlardan foydalanish hamda ularni yaratgan muallifning turli hajviyona taxalluslarni qoʻllashi ham tabiiy, ham samarali yoʻldir. Abdulla Qodiriyning oʻtkir satirik hajviyotida inson va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlarni ifodalashda ijodkor bu taxallusini qoʻllashdan asl maqsadi nima ekanligini bir qadar tahlil qilish mumkin. Adib oʻzining hali shakllanmagani, yetuk fikrlarga ega emasligiga ishora qilyaptimi yohud jamiyatdagi keskin oʻzgarishlarni oʻzida singdira olmayotganiga, hazm qila olmayotganiga ishorami, yoki kishilik olamining ora yoʻlda qolgan ijtimoiy muhitning umumlashgan tasvirini bermoqchimi, buni bir qadar tafakkur qilish qiyin emas. Har qanday ijodkor oʻz ijodiy individuali zamirida umumlashma mohiyatni jamlashga intiladi. Abdulla Qodiriy oʻz asarlari orqali bunga erisha olgan deb bemalol aytilish mumkin.

Abdulla Qodiriy kichik prozaik asarlarining yaratilishi ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar davriga toʻgʻri kelganligi uchun antroponimlarning qoʻllanilishidagi holat





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


ham turlicha bo'lgan. Asar voqealari XX asr boshida va birinchi choragida sodir bo'lganligi sababli aksar qahramonlar tarixiy shaxslar hisoblanadi, shuning uchun tarixiy shaxslarning nomlari sifatida *Sheralixon*, *Xudoyorxon*, *Mallaxon* kabi hukmdorlarning, *Muhammad Sharif otaliq*, *Salimsoqbek*, *Azizbek*, *Normuhammad qushbegi*, *Shodmon o'roq*, *Mirza Ahmad qushbegi*, *Mallaxon*, *Qushdodho* kabi beklarning, *Musulmonqul*, *Mulla Alimqul*, *Yoqubbek* singari xonlik davridagi maldorlarning, asarlar qahramonlarining nomlari sifatida *Turg'un*, *Mahkam*, *Kalvak mahzum*, *Toshpo'lat tajang*, *O'sar* kabi asosiy qahramonlarning, *Salim chavandoz*, *Murod chavandoz*, *Orif sarkor*, *Samad hakim*, *Abdulkakim qori* ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlarini, *Samad hakim*, *Yusuf*, *Sayidxo'ja*, *Yusufxo'ja*, *Muhamad Karim* tarzidagi oddiy xalq vakillari ismlarini keltiradi.

Kichik prozaik asarlarda, xususan, "Kalvak maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi?" asarlarida shaxsning bajaradigan mashg'uloti, uning turli xil xususiyatlariga qahramonning munosabatini ifodalash uchun laqablar qo'llangan: *Orif sarkor*, *Salim chavandoz*, *Murod chavandoz*, *Mirsalim dukchi*, *Azim shayton*, *Nabi qizilbosh*, *Mirxoliq qiyshiq*, *Shoolim cho'loq*, *Aziz yakanchi*, *Eshonxo'ja gupchak*, *Ne'mon bujur*, *Mahkam tentak* va h.k.

Har bir nom va u bilan birga keltirilgan izohlovchi tarzidagi birliklar obrazlarning bajaradigan vazifasi, ularning individual belgilarini ochib berishga xizmat qiladi. Izohlovchi sifatida keltirilgan *sarkor*, *chavandoz*, *tegirmonchi*, *dukchi*, *yakanchi* kabi birliklar obrazlarning bajaradigan vazifasi bilan birga xalqimizning ijtimoiy-maishiy madaniyatining qirralarini ham ochib berishga xizmat qiladi. *Qizilbosh*, *shayton*, *qiyshiq*, *cho'loq*, *tentak*, *bujur*, *gupchak* kabi laqablar obrazlarning psixologik belgilari asosida ma'naviy qiyofdalarini ochib berishga yordam beradi.

Bundan tashqari Abdulla Qodiriy asarlarida talmeh tarzida keltirilgan mashhur shaxslarning (*Fir'avn*, *Go'ro'g'li sulton*, *Yusuf*), din bilan bog'liq (*Jabroil*), ijodkorlarning ism va taxalluslari (*Hofiz*, *So'fi Olloyor*), yangi davrda –ov orqali hosil qilingan nomlar (*To'ychiboyev*, *Zuhurov*, *G'oziyev*, *oldorov*, *Sultonov*), shakli o'zgartirilgan holatda berilgan nomlar (*Lilim (Lenin)*, *Mikolay (Nikolay)*) ham keltirilganki bular ham asarlar yozilgan davrdagi madaniy hayotning qay holatda kechganligi haqida xabar beradi.

Bundan ko'rinadiki, Abdulla Qodiriy antroponimlarni qo'llash jarayonida, odatda, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda amalga oshirgani uning yuksak so'z san'atkori





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

ekanligini anglatadi. Bu bilan o'sha davrdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotning qay yo'yinda kechganligi oydinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodiriy A. "She'rlar, hikoyalar, ocherklar, drama, hajviya va kichik asarlar". T.: Zabarjad Media, 2022.

2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.


3. Серебренников Б.А. Язык как общественное явление. «Общее языкознание. Формы существования, функции, история языка». М., 1970, стр. 420.

4. Турдибеков М. Абулғози Баҳодирхоннинг "Шажарайи турк" асари ономастикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: 2001. – Б. 11.

5. Подольская Н. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. – С. 128.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. – Тошкент, 2006-2008. Тошкент, I. 2006. – 680 б.; Тошкент, II. 2006. – 672 б.; Тошкент, III. 2007. – 688 б.; Тошкент, IV. 2008. – 608 б.; Тошкент, V. 2008. – 592 б.

7. Зыбковец В. Ф. Дорелигиозная эпоха. -М.: 1959, стр. 119.





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING TAKOMILLASHTRISH

Asrayeva Munisa

International school of finance and technology institute magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy nazoratida ichki audit xizmatining takomillashtirilishi masalasi yoritilgan. Maqolada ichki auditning davlat boshqaruv tizimidagi ahamiyati, uning moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda o‘rni va davlat budjetining to‘g‘ri ishlatilishini ta‘minlashdagi roli ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ichki audit xizmatining zamonaviy tendensiyalari, xalqaro tajriba va standartlarga mos ravishda uning faoliyatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Maqola ichki auditni samarali tashkil etish uchun tavsiyalar va amaliy yo‘riqnomalar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirishga qaratilgan muhim qadamlarga to‘xtaladi. Mazkur izlanish ichki audit tizimining kuchaytirilishi va uning davlat boshqaruvida yangi yuksakliklarga erishishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: audit; ichki audit; rivojlanish; mexanizm, moliyaviy nazorat, tashqi audit, ichki audit, ichki audit xizmati bo‘limi yig‘ma hisoboti, ichki audit natijalari, ustav, kuzatuv kengashi, bo‘lim boshlig‘i, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazorati tizimi mamlakat iqtisodiyoti va davlat boshqaruvining samarali ishlashi uchun alohida ahamiyatga ega. Davlat byudjeti va moliyaviy resurslarning to‘g‘ri va samarali ishlatilishi, davlat xizmatlarining sifatli ko‘rsatilishi, shuningdek, moliyaviy va iqtisodiy xavf-xatarlarni minimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tizimning samarali ishlashi uchun ichki audit xizmati katta ahamiyat kasb etadi. Ichki auditning asosiy vazifalari moliyaviy hisobotlarning to‘g‘riligi va aniqligini ta‘minlash, moliyaviy resurslarning samarali va maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish, tashkilotning ichki nazorat tizimini mustahkamlashni asosiy vazifa sifatida belgilaydi.

Biroq, global iqtisodiy o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar, xalqaro moliyaviy standartlar va audit usullarining rivojlanishi bilan ichki audit xizmati ham doimiy ravishda takomillashtirishni talab etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi ichki audit tizimining





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

samaradorligini oshirish, uning xalqaro tajribalarga asoslangan ilg'or usullardan foydalanishini ta'minlash zarurati mavjud. Bu, ayniqsa, davlat byudjeti va moliyaviy resurslarining to'g'ri boshqarilishini kafolatlash, korrupsiyaga qarshi kurashishda, shuningdek, davlat organlarining faoliyatini shaffofligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Ichki audit xizmatining bugungi holati, uning mamlakat iqtisodiyoti va davlat boshqaruvida o'rni, hamda tizimdagi mavjud kamchiliklar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ichki auditni takomillashtirishning zamonaviy usullari, xalqaro tajribadan foydalanish va audit faoliyatini samarali tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola ichki auditning samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar, amaliy yondashuvlar va texnologik yangiliklarni o'z ichiga olgan keng qamrovli tahlilni taqdim etadi. Ushbu izlanish ichki audit xizmati tizimining mustahkamlanishi va uning davlat moliyaviy nazoratida yangi yuksakliklarga erishishdagi ahamiyatini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611 qarori yurtimizda hisob siyosatida yangi sahifa ochildi. Bu jarayonlar O'zbekiston korporatsiyalari faoliyati ustidan ichki nazoratni tashkil etishda muhim o'zgarishlarga sabab bo'lib, moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborotni oshkor qilishning boshqa talablarini ilgari suradi.


Mamlakatdagi korxonalar ichki auditi tizimining asosiy vazifasi –maxsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va tan narxini pasaytirish yo'llarini izlab topishdir. Ichki auditor yana korxonaning mehnat unumdorligini va samaradorligini oshirish bo'yicha maslaxatlar berishi kerak. Iqtisodiy tizimning buzilishini tekshirish ko'p mehnat talab qiladigan auditdir. Bunda korxonada moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari o'rganiladi. Ichki auditor korxonada u yoki bu rivojlanish yo'nalishini ma'qullashi yoki ma'qullamasligi mumkin. Ichki audit maqsadi korxonada xodimlarining qonun hujjatlariga, me'yoriy hujjatlarga va kasb faoliyati standartlariga rioya etishini nazorat qilish, tamonlar manfaatlari o'rtasidagi nizolarni bartaraf etish, korxonada amalga oshirayotgan operatsiyalarning xususiyatlari va ko'lamlariga mos ishonchlikni ta'minlash xamda korxonada faoliyatidagi xatarlarni kamaytirish yo'llaridan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit qonun va me'yoriy hujjatlarga asosan tashkil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2006






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

yil 27 sentyabrdagi PQ-475-son qaroriga, hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2006 yil 16 oktyabrdagi 215-son qaroriga muvofiq aktivlarining balans qiymati 1 mlrd. so‘mdan ortiq bo‘lgan korxonalarda ichki auditni tashkil etishga qo‘yiladigan yagona talablarni hamda uning ishini tashkil etishning metodologik asoslarini belgilash maqsadida «Korxonalardagi ichki audit xizmati to‘g‘risida Nizom» qabul qilindi. Hozirgi kunda ushbu Nizom xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda ichki auditni tashkil qilish tartibi ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjat hisoblanadi.



1-rasm. Mikrodarajadagi nazorat tizimi

Ichki audit bo‘limi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari va boshqa hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik Nizomi va vazirlikning ichki me‘yoriy hujjatlari talablariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu bo‘lim korxonaning tarkibiy tuzilmasi hisoblanadi va o‘z vakolati doirasidagi masalalar yuzasidan korxonaga rahbariga bo‘ysunadi va hisobot beradi. Shuningdek, bo‘lim korxonada ichki auditorlik nazoratini o‘tkazish, shuningdek, korxonada ichki nazorat tekshiruvlari rejalari va ichki audit natijalari bo‘yicha hisobotlarini mustaqil ravishda






tayyorlaydi. Bizningcha, korxonalar ichki audit xizmati bo‘limining asosiy vazifalari, funksiyalari va huquqlari quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

1-jadval

Ichki audit bo‘limining asosiy vazifa va funksiyalari hamda huquqlari

Bo‘limning asosiy vazifalari	Bo‘limning asosiy funksiyalari	Bo‘limning asosiy huquqlari
<p>I.Korxonada kuzatuv kengashini ishonchli axborot bilan ta‘minlash va ichki auditorlik tekshiruvlari natijalari bo‘yicha kompaniya faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>II.Korxonada o‘tkazilgan ichki audit tekshiruvlari jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, ularni bartaraf etish ustidan nazoratni amalga oshirish bo‘yicha kompaniya boshqaruv organlariga tavsiyalar kiritish.</p> <p>III.Kuzatuv kengashi va ijro etuvchi organi kompaniya faoliyatida aniqlangan firibgarlik va qonun buzilish holatlari to‘g‘risida o‘z vaqtida</p>	<p>I.Korxonaning kuzatuv kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan rejaga muvofiq ichki nazorat tekshirishlarini amalga oshirish.</p> <p>II.Korxonaning tarkibiy bo‘linmalariga buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda uslubiy yordam ko‘rsatish, ularga moliyaviy, soliq, bank va boshqa qonunchilik masalalari bo‘yicha maslahat berish.</p> <p>III.Korxonada kuzatuv kengashiga tashqi auditorlik tashkilotlarini xizmatini tanlash uchun texnik topshiriqlarni ishlab chiqishda, ularning takliflarini baholashda ko‘maklashish, shuningdek auditorlik</p>	<p>I.Korxonada hujjatlarini olish (buyruqlar, farmoyishlar, boshqaruv organlarining qarorlari, ma‘lumotnomalar, hisob-kitoblar, zarur hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari va boshqa hujjatlar), ichki auditni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan masalalar bo‘yicha kompaniyaning mansabdor va mas‘ul shaxslaridan og‘zaki va yozma tushuntirishlar olish; Ichki auditni o‘tkazishda yordam berish uchun korxonaning tegishli mutaxassislarini jalb qilish.</p> <p>II. Ichki audit xizmatining joriy davr va istiqboldagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha korxonada kuzatuv</p>






xabardor qilish, shuningdek, boshqaruvi samaradorligini bo'yicha berish.	korxonada oshirish tavsiyalar	tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditorlik tashkilotini tanlashda tavsiyalar tayyorlash.	kengashiga takliflar kiritish.
--	-------------------------------	--	--------------------------------

Korxonalarda ichki audit faqat ichki audit xizmati xodimlari tomonidan tekshirishlar va monitoring o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda korxonaning tasdiqlangan biznes-rejasining bajarilish holati, korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinishi, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot holati, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning to'g'riligi, moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilish, aktivlar holati, ichki nazorat holati o'rganiladi. O'tkazilgan ichki audit tekshiruvlari natijalari bo'yicha ichki auditning yig'ma hisoboti tayyorlanadi. Mazkur yig'ma hisobotda biznes-reja bajarilishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tahlili, biznes-rejaning bajarilmasligiga aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar to'g'risida ma'lumot va rejaning bajarilmaslik sabablari, korxonaning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning natijadorligi tahlili, korxonada ustav(nizomi) talablariga rioya etilishi va korporativ boshqaruv sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik holatlarining tavsifi (korxonada boshqaruv organlarining umumiy yig'ilishlari va majlislarini o'tkazilishi va boshqalar) ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, ichki audit natijalari bo'yicha yig'ma hisobotda yuqoridagilar bilan birga korxonaning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari, moliya-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda qonunchilikka rioya etilishi hamda korxonada ichki nazorat holatini tekshirish natijalari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar kiritilishi zarur. (2-chizma)





2-rasm. Ichki audit natijalari bo'yicha yig'ma hisobotda aks ettiriladigan ma'lumotlar.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Korxonaning mavjud mulki va mablag'larining holatini tekshirish natijalari inventarizatsiya natijalariga asoslanishi va ular harakati, mavjudligi va saqlash holati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim. Ichki auditning yig'ma hisobotida korxonada tarkibiy bo'linmalari faoliyatini baholash, aniqlangan me'yordan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar hamda tekshiruvni amalga oshirgan ichki auditor fikrini asoslovchi dalillar nusxalari kiritilishi shart. Ichki audit natijalari bo'yicha yig'ma hisobot ichki audit xizmati rahbari tomonidan tuzilib, ushbu hisobot kirish, analitik qism, oxirgi qism va to'plangan dalil hujjatlari to'plamidan iborat bo'lmog'i lozim. Mazkur ichki auditning yig'ma hisoboti ichki auditorlik tekshiruvlari tugaganidan so'ng o'n kun ichida tayyorlanishi hamda ular to'g'ridan-to'g'ri korxonaning kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Hisobotlar nusxalari tasdiqlanganidan keyin korxonada rahbari (o'rinbosari)ga taqdim etiladi. Shuningdek, korxonada kuzatuv kengashi yoki rahbari ichki audit natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rishi hamda ko'rilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi ichki auditorlar tomonidan nazorat qilinishi maqsadga muvofiqdir.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arens A., Lobbek Dj. Audit. /Per. s angl. pod red. Ya.V. Sokolova. – Moskva: Finansy i statistika, 2023. – 560 s.
2. Axmedjanov K.B. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida ichki auditning uslubiy usullari, tekshiruv ob'ektini tanlashning aniqlash masalalari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2024. – № 4, iyul-avgust.
3. Axmedjanov K.B. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ichki audit metodologiyasini takomillashtirish: iqd.f.nom. diss.avto-ref. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi, 2022. – 76 b.
4. Dusmurotov R.D. Audit asoslari: darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2023. – 612 b.
5. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish uslubiyati: muammo va yechimlar: monografiya. – Toshkent: VNESHINVESTPROM, 2024. – 191 b.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

6. <https://www.imv.uz>. - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy sayti



INVESTITSIYA LOYIHALARINING MOLIVAVIY VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Turdinazarova Yorqinoy Sirojiddin qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, iqtisodiyot mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqola investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'nalishlariga bag'ishlangan. Investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jamiyat farovonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada, investitsiya loyihalarining samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan asosiy ko'rsatkichlar, moliyaviy va iqtisodiy tahlil metodlari, shuningdek, samaradorlikni oshirishga doir tavsiyalar keltirilgan. Tadqiqotda investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar va ularni hal qilish usullari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Investitsiya loyihalari, moliyaviy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, tahlil metodlari, investitsiya samaradorligini oshirish, loyiha boshqaruvi, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract

This article is devoted to the directions of increasing the financial and economic efficiency of investment projects. The successful implementation of investment projects is of great importance in ensuring economic growth and increasing the well-being of society. The article presents the main indicators used to assess the efficiency of investment projects, methods of financial and economic analysis, as well as recommendations for increasing efficiency. The study also discusses the main problems that arise during the implementation of investment projects and methods for solving them.

Keywords. Investment projects, financial efficiency, economic efficiency, analysis methods, improving investment efficiency, project management, economic development.

KIRISH

Investitsiya loyihalari iqtisodiyotning barcha sohalarida o'sish va rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Shu



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

bilan birga, investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligi ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Loyihalarni amalga oshirish jarayonida ularning samaradorligini baholash va optimallashtirish, shuningdek, investitsiyalarni to'g'ri boshqarish orqali iqtisodiy foyda olish muhimdir. Maqolada investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish uchun amaliy tavsiyalar, moliyaviy tahlil va iqtisodiy baholash usullari taqdim etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha bir nechta tadqiqotlar mavjud. Ba'zi olimlar (Vernon, 1992) investitsiya loyihalarini tahlil qilishda moliyaviy ko'rsatkichlar, jumladan, Net Bug'doy Qiymati (NPV) va Ichki Rentabellik Normasini (IRR) baholashni muhim deb biladilar. Boshqa tadqiqotlarda (Harrison va Henson, 2001) iqtisodiy samaradorlikni baholashda iqtisodiy resurslarni yanada samarali taqsimlash zarurligi ta'kidlangan. Shuningdek, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirishda inson resurslari va texnologik yangilanishlar kabi omillar muhim ahamiyatga ega (Sims va Lee, 2014).

Bundan tashqari, investitsiya samaradorligini baholashda har bir loyihaning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olish zaruriyati ham alohida qayd etilgan (Ackerberg, 2016). Ma'lumki, investitsiya loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun to'g'ri boshqaruv va risklarni boshqarish zarur, chunki ular samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotda investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun analitik metodlar va statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Investitsiya loyihalarini baholashda quyidagi asosiy metodlar ishlatilgan:

Net Bug'doy Qiymati (NPV) – Loyihaning kelajakdagi naqd pul oqimlarining hozirgi qiymatini hisoblash orqali moliyaviy samaradorlikni baholash.

Ichki Rentabellik Normasi (IRR) – Loyihaning rentabellik darajasini baholash uchun foydalanuvchi ko'rsatkich.

Sosial daromad – Iqtisodiy samaradorlikni baholashda jamiyat uchun yaratilgan foydaning tahlili.

Risk tahlili – Loyihaning muvaffaqiyati uchun yuzaga keladigan xavflar va ularning samaradorlikka ta'sirini aniqlash.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Tadqiqotda shuningdek, investitsiya loyihalarini boshqarishda innovatsion metodlarni qo‘llash, tashkilot ichidagi resurslarni samarali taqsimlash va texnologik yangilanishlarni jalb qilish masalalari ham ko‘rib chiqildi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi:

Moliyaviy Samaradorlikni Oshirish: Loyihalarni amalga oshirishdan oldin samaradorlikni baholashda NPV va IRR ko‘rsatkichlaridan foydalanish moliyaviy risklarni kamaytiradi va samaradorlikni oshiradi.


Iqtisodiy Samaradorlik: Jamiyat uchun yaratilgan ijtimoiy foyda va iqtisodiy o‘shishning mustahkamlanishi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali loyihaning umumiy iqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Risklarni Boshqarish: Risklarni aniqlash va boshqarish orqali investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatga erishish imkoniyati oshadi. Investitsiya loyihalarida yuzaga keladigan ijtimoiy, iqtisodiy va moliyaviy xavflarni hisobga olish zarur.

Innovatsiyalar va Texnologiyalar: Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi investitsiya loyihalarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Avtomatizatsiya va raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni ko‘paytirish mumkin.

1-jadval. Investitsiya loyihalarining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar jamlangan jadval

Ko‘rsatkichlar	Tavsif	Samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati
Net Bug‘doy Qiymati (NPV)	Loyihaning kelajakdagi naqd pul oqimlarining hozirgi qiymatini hisoblash.	Moliyaviy samaradorlikni oshiradi va risklarni kamaytiradi.
Ichki rentabellik normasi (IRR)	Loyihaning rentabellik darajasini baholash uchun foydalanuvchi ko‘rsatkich.	Loyihaning daromad ko‘rsatib, investitsiya uchun samarali






		qarorlar qabul qilishga yordam beradi.
Sotsial daromad	Jamiyat uchun yaratilgan iqtisodiy foydaning tahlili.	Jamiyatga qo‘shimcha iqtisodiy foyda yaratish va ijtimoiy muammolarni hal qilish.
Risklarni boshqarish	Loyihaning muvaffaqiyati uchun yuzaga keladigan xavflar va ularning samaradorlikka ta’sirini aniqlash.	Loyihaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi.
Innovatsion texnologiyalarni joriy etish	Texnologik yangilanishlar va innovatsion echimlar orqali loyihaning samaradorligini oshirish.	Loyihalar samaradorligini ko‘paytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va daromadlarni oshiradi.

Ushbu jadval investitsiya loyihalarining moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy ko'rsatkichlarni, ularning tavsiflarini va samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Net Bug‘doy Qiymati (NPV): Bu ko'rsatkich loyihaning kelajakdagi naqd pul oqimlarining hozirgi qiymatini hisoblash orqali loyihaning moliyaviy samaradorligini baholash imkonini beradi. U moliyaviy samaradorlikni oshiradi va risklarni kamaytirishga yordam beradi.

Ichki Rentabellik Normasi (IRR): Bu ko'rsatkich loyihaning rentabellik darajasini baholash uchun ishlatiladi. Loyihaning daromad darajasini ko'rsatib, investitsiya qarorlarini qabul qilishda samarali vosita bo'ladi.

Sosial Daromad: Jamiyat uchun yaratilgan iqtisodiy foyda va uning tahlilini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich jamiyatga qo‘shimcha iqtisodiy foyda yaratish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda ahamiyatlidir.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Risklarni Boshqarish: Loyihaning muvaffaqiyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan xavflarni aniqlash va ularni boshqarish. Bu ko'rsatkich loyihaning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini oshiradi va xavflarni minimallashtiradi.

Innovatsion Texnologiyalarni Joriy Etish: Texnologik yangilanishlar va innovatsion echimlar orqali loyihaning samaradorligini oshirish. Bu ko'rsatkich loyihalar samaradorligini ko'paytiradi, xarajatlarni kamaytiradi va daromadlarni oshiradi.

Jadval loyihaning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni tahlil qiladi va har bir ko'rsatkichning qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Juwmaqlap aytqanda, «Sháriyar» dástanında troplardıń jumсалıwın úyreniw arqalı dástannıń poetikası ol xalqımız ortalıǵında qalıplesken turmıs shárayatlarımızdı, dúnyaǵa kóz qaraslarmızdı, úrip-ádet dástúrlerimizdi kórkem poetikalıq dárejege kótergen miyras, ruwhıy múlkimiz bolıp tabıladı dep ayta alamız. Dástannıń kórkemlik ózgesheligi tek jırawdıń sheberligin emes, al xalqımızdıń áyyemnen sóz ónerin qádirlegen sózge sheber, mádeniyatı bay xalıq ekenligin de kórsetedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Bekbawlov O. Qaharmanlıq epostıń arab-parsı leksikası hám onıń tariyxıy lingvistikalıq xarakteristikası. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 1979.
2. Ábdinazimov Sh. Berdaq shıǵarmalarınıń tili. Tashkent, 2006.
3. Ábdinaimov Sh. Lingvofolkloristika. 2018.
4. Qarlıbaeva G. Ájiniyaz shıǵarmaları tiliniń semantika-stilistikalıq ózgeshelikleri. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2017.
5. Allambergenova G. I.Yusupov shıǵarmalarında frazeologizmlerdiń stillik qollanıwı. Nókis, 2019
6. Yusupova B. Fonostilistika. Tashkent, 2021.
7. Jarımbetov Q. Genjemuratov B. Ádebiyat teoriiyası. Tashkent, «Sano-standart», 2018.
8. Qaraqalpaq folklorı V tom. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 1997.
9. Dosımbetova A. Ádebiyatta kórkemlew quralları. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2017.
10. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, «Ózbekiston», 2002.
11. Jarımbetov Q. Ádebiyattanıwdan sabaqlar. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2012.
12. Айназарова, Г., & Алламбергенова, Г. (2016). АДЪЕКТИВЛИК ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕР ҚУРАМЫНДА КЕЛБЕТЛИКЛЕРДИ ЖУМСАЛЫЎ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 32(3), 131–133. извлечено от <https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/839>
13. Алламбергенова, Г. (2017). И.ЮСУПОВ ШЫҒАРМАЛАРЫНДА АДЪЕКТИВ





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕРДИҢ СТИЛЬЛИК ҚОЛЛАНЫЛЫҒЫ. ВЕСТНИК
КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ
БЕРДАХА, 35(2), 153–155. извлечено от
<https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/1008>

14. И. Юсупов шығармаларында фразеологизмлер менен психологиялық халаттын
берилиўи. Пим ha'm ja'miyet А Гулжахан No'kis 1, 16-17, 2017

15. Алламбергенова, Г. (2016). ФРАЗЕОЛОГИЯЛЫҚ СӨЗ ДИЗБЕКЛЕРИНДЕГИ
СИНОНИМИЯ (И.Юсупов шығармалары мысалында). ВЕСТНИК
КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ
БЕРДАХА, 33(4), 119–122. извлечено от
<https://science.karsu.uz/index.php/science/article/view/905>


16. Фразеологиялық сөз дизбеклериниң көркемлеў қураллары хызметинде
қолланылығи А Гулжахан Актуальные вызовы современный науки. VI
Международная научная конференция, 2016

17. Юсупов асарларида синоним фразеологизмларнинг услубий қўлланилиши АИ
Гулжахан Пим sarchashmalari. Urganch 6, 71-75

18. Фраземалардың узвал стильлик функцияларда қолланылығи Мумтоз адабиёт ва
жамиятни маънавий янгилаш масалалари» А Гулжахан Халқаро илмий, 2017

19. Выражение психологических состояний посредством фразеологизмов в
произведениях И. Юсупова Гулжахан Айтбаевна Алламбергенова Российская
тюркология, 58-64, 2018

20. Юсупов поэзиясында соматикалық фразеологизмлердиң стильлик қолланығи
АИ Гулжахан Пим ha'm ja'miyet. No'kis 4, 11-13



УДК636.09

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ҚОРАМОЛЛАР ОРИЕНТОБИЛЬХАРЦИОЗ КАСАЛЛИГИНИНГ ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ ЧОРА ТАДБИРЛАРИ.

Алланиязов Орынбай Утениязович.

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги
ва агротехнологиялар институти, ассистенти

Онгарбаев Юнус Амангелдиевич

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги
ва агротехнологиялар институти, талабаси

Аннотация


В статье подробно описаны сведения о ориентобильгарциозе крупного рогатого скота, возникновении болезней по сезонам года, а также о профилактических мероприятиях по недопущению возникновения и распространения болезней. Проведен анализ заболеваемости, а также эффективности мер борьбы профилактики по недопущению инвазии крупного рогатого скота.

Summary

The article describes in detail information about orientobilxarciosis in cattle, the occurrence of diseases by the seasons of the year, as well as preventive measures to prevent the occurrence and spread of diseases. An analysis of the incidence, as well as the effectiveness of preventive control measures to prevent the invasion of cattle, was carried out.

Калит сўзлар: ориентобильгарциоз, фасциолёз, гельминтоз, гельминт, моллюскалар, антигельминтик, прозиквантель, дронцит, азинокс, амбильгар, фуадин, ацемидофен, альбет, клозатрем, альбендазол, роленол.

Қорақалпоғистон Республикасида хайвонларда кузатиладиган жиддий касалликларнинг бири ориентобильгарциоз саналади. Республикада хайвонлар ориентобильгарциози бўйича эпизоотик вазиятнинг кескинлигидан келиб чиқиб,






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

қўзғатувчи биологияси, экологияси, касаллик эпизоотологияси, патогенези, диагностика боасида интенсив тадқиқотлар бошланган ва инвазияларни даволаш ҳамда профилактика қилишнинг замонавий методларини излашга қаратилган аниқ чора-тадбирлар қабул қилинган. Шунга қарамастан, инвазия кенг тарқалган худудларда ҳайвонлар ориентобильгарциози бўйича эпизоотологик ва эпидемиологик вазият анчагина кескинлигича қолмоқда ва доимий мониторинг олиб бориш ҳамда комплекс профилактик чора-тадбирларни амалга оширишни талаб қилмоқда. Республика худудларида апрел-май, июль-сентябр ойларида қорамолларнинг ориентобильгарциоз паразитар касалликларининг келиб чиқишига сабаб бўлади. Қорамолларнинг ориентобильгарциоз касаллиги- Қорақолпоғистон республикасининг барча туман худудларида кенг тарқалган бўлиб, чорвачиликда маҳсулдор молларни ривожлантиришда катта иқтисодий зарар етказди. Қорамолларнинг ориентобильгарциоз касалликларидан келадиган иқтисодий зарар касалланган молларнинг ўлими, мажбурий сўйилиши, ҳамда касалланиб соғайган моллар узок вақт давомида касаллик қўзғатувчи паразитларни ташувчилик хусусиятини ўзида сақлаб қолиши, маҳсулдорлиги пасайиб кетиши, ишлаб чиқаришда яроқсиз бўлиб қолиши ва ветеринария-санитария тадбирларига кетган ҳаражатлардан иборат бўлади.

Қорақолпоғистонда ориентобильгарциоз қорамоллар орасида кенг тарқалган ва касалланиш даражаси юқори, жуда ҳавфли трематодоз касалликлари гуруҳига киради. Республикаимизнинг шимолий зоналарида асосан Мўйноқ, Қўнғирот, Бўзатов, Караўзак, Кегейли, Тахтақўпир, Чимбой туманларида фасциолёз-ориентобильгарциоз аралаш формаларида учраб туради. 1984-2005 йилларда ушбу туманлардаги чорвачилик ширкат хўжаликларида қорамолларининг ориентобильгарциоз касаллиги билан касалланиш даражаси юқори бўлган. Сабаби хўжаликдаги қорамолларнинг дерлик ҳаммаси йилнинг апрел ойидан бошлаб, ноябрь ойигача “Ержан атаў”, “Аққала” ва “Тоғуз-торе” массивларида яйловларда боқилган. Қатор хўжаликларда қорамолларда 65,0% гача касалланиб нобуд бўлган. Тадқиқотларга кўра, ориентобильгарциозлар барча ёш гуруҳидаги қорамоллар барча мавсумларда паразитлик қилади.

Касаллик инвазияси кўз-қиш мавсумида максимал даражада қайд қилинган. Ҳайвонлар ориентобильгарциози эпизоотияси 1964-1965, 1984-1985, ва






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

2004-2005 йилларда кўзатишган. 1984-1985 йиллар мобайнида Қорақолпоғистон Республикасида 13 минг бош атрофида қорамоллар нобуд бўлган.

1984-2005 йилларда Қорақолпоғистон худудида ориентобильгарциоздан катта ва кичик ёшдаги қорамолларнинг оммавий равишда нобуд бўлганлиги кўзатишган. Касалланиш даражаси юз фойиз бўлган. Асосан қорамолчилик хўжаликларда ориентобильгарциознинг кенг тарқалганлиги ва иқтисодий зарари туфайли қорамолчиликдан воз кечишган ҳолатлар ҳам бўлган. Шунингдек Қорақолпоғистон Республикасида қисқа вақтда бир неча юзлаб қорамоллар ҳам унинг ўткир оқимидан нобуд бўлган. Ориентобильгарциозга чалинган қорамолларнинг тирик вазни 20-35% гача камаяди ва барча касалланган моллар гўшт корхоналарига топширилган. Барча ҳайвонларнинг гўшт маҳсулотларининг миқдори ва сифати пасаяди. Сўйилган ҳайвонлардаги гўштни сифати энг муҳим паренхиматоз орган – жигар истеъмолга яроқсиз деб топилади. Қорамолчилик хўжаликларига катта иқтисодий зарар етказган. Ушбу йилларда мамлакатимизнинг паразитолог профессор олимлари: ЎзР ФА академиги, б.ф.д Азимов.Д.А., профессор Орипов.А.О., Шакиев Е.С., Йўлдошев.Н.Э.лар касалликни олдини олиш ва бартараф қилишда тадқиқотлар ўтказиб, самарали ишлар олиб борган.


Қорақолпоғистон Республикасида ориентобильгарциоз касаллигининг кўзғатувчиси *Orientobilharziya turkestanica*, унинг оралиқ хўжайинлари чучук сув шиллик куртлари *Lymnaea auricularia* ва *Lymnaea Pereger* моллюскаларидир ва асосий хўжайинлари чорва моллари ҳисобланади. Ҳайвонларнинг личинкалари билан зарарланиши июнь-июль ойларидан бошланади, куз-қиш даврида инвазия экстенсивлиги ва интенсивлиги энг юқори даражага етади. Ҳайвонлар касалликка сув ҳавзалар, яйлов кўллари зарарланади. Бордоқига боқилаётган ҳайвонлар зарарланган ўчоқлардан тайёрланган хўл ва қуруқ озуқалар истеъмол қилиш натижасида зарарланади.

Қорамоллар ориентобильгарциозидан асосан ингичга ичак жароқатланади. Ичак ичидаги масса суйиқ қон ва фиврин парда аралаш бўлади. Ичак шиллик пардаларида қон қуйилишлар кўзатилади. Ичак тутқишлари қон томирлари қаралганда уларда трематодаларни кўриш мумкин. Жигар ҳажми катталашади.





*ориентобильхарция гельминтлари
томирларидаги*



жигар ва чарви қон

гельминтлар

Даволаш ишлари - Ориентобильгарциоз билан касалланган ҳайвонларни қуйидаги антигельминтиклар қолланилади:

Прозиквантел- йирик ва майда шохли ҳайвонларда 1-таб 20 кг тирик вазнига оғиз орқали берилади; **Дронцит**- юқори самарали, қорамолларга дозаси 20-25мг\кг, қўй-эчкиларга 15-20мг\кг оғиз орқали; **Азинокс**- қорамолларни даволаш учун 25мг\кг оғиз орқали; **Амбильгар**- қорамолларга 0.03-0.04 г.\кг дозада оғиз орқали ичга интервал 5 кун; **Фуадин**- 0.3 мл дозада мускул орасига еки марта кун-аро; **Ацемидофен**- қорамолларга 0.25г\кг дозада оғиз орқали ичирилади; **Алвет (суспензия)** - юқори самарадорли, қорамолларга 100 кг тирик вазнига 10 мл, 10 кг тирик вазнига 1 мл, қўй-эчкиларга 10 кг 0,75 мл, оғиз орқали, бир марта; **Алвет (гранула)** – юқори самарадорли, қорамолларга 100 кг тирик вазнига 5 гр, қўй-эчкиларга 100 кг 3,75 гр, оғиз орқали, бир марта; **Клозатрем** – натижа самарали, 10 кг тирик вазнига 1 мл ҳисобига мускул орасига ва тери остига бир марта, битта жойга йирик шохли молларга 20 мл дан, мойда шохли молларга 10 мл дан қўп бўлмаслиги;

Олдини олиш чора-тадбирлари. Ориентобильгарциозга қарши курашиш да барча гельминтозларга қарши курашиш сингари энг асосий тадбир –





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


дегельминтизация ишлари ҳисобланади. Носоғлом ҳудудларда йил давомида 3 маротаба баҳор, кўз ва қиш ойларида дегельминтизация қилиниши керак, қорамолларни ориентобильгарцид спектрдаги таъсирчан антигельминтиклардан фойдаланган ҳолда дегельминтизация қилиш; биринши-дегельминтизация май ойларида, иккинчи-дегельминтизация сентябрь ойларида, учинчи-дегельминтизация ишларини декабрь-январь ойларида ўтказилиши лозим. Июндан октябрга қадар носоғлом яйловларни алмаштириш; ботқоқлашган ҳудудларни қуритиш; ҳайвонларни боғлоб боқиш тизимига ўтказиш керак.

Қорақолпоғистон Республикасида шароитида қорамолларнинг фасциолез ва ориентобильгарциоз билан касалланиш даражаси ҳамда даволаш чора-тадбирлари

1-

жадвал

№	Моллар гуруҳи	Текширилган мол бош сони	Капрологик текшириш натижаси	Касалланиш даражаси %	Текширилган касаллик	Даволаш усуллари	Олдини олиш чоралари ва тавсиялар
1-Гуруҳи: Қорамоллар (фасциолёзга текшириш)							
1.	қорамоллар	30	13	43	фасциолёз	«Альбет» суспензия дозаси 10 кг тирик вазнига 1 мл бир марта	Йилига 2-март, ҳар 6 ойда апрел-сентябрь ойларида профилактик даволаш
Жами:-		30	13	43			
2-Гуруҳи: Қорамоллар (ориентобильгарциозга текшириш)							






2.	қорамо л лар	30	5	16	Ориентоб ильхарци оз	«prazikvantel » Таблетка ориентобиль гарциоз ҳолатига гижжадан тозалаш(анти гельминтик) восита. 1 таб/20 кг	Йилига 3- марта, 1-марта май ойида; 2- марта сентябрь ойида; 3- марта декабрь- январь ойларида профилактик даволаш
Жами:		30	5	16			

Тадқиқотлар Қорақалпоғистон Республикасида 2022-2023 йилларнинг май-июль ойларида Кегейли, Бўзатов туманлари ориентобильгарциоз носоғлом худудларида аҳоли қорамолларида гелминтокапрологик текшириш ишлари олиб борилди. Ушбу туман худудларида кўллар, кўлчалар, яйловлар, ҳовузлар, ариқлар ва ариқчалар, иссиқ артезиан қранларнинг борлиги бошқа худудларга нисбатан анча кўплиги билан ажралиб туради ва молларнинг ҳаммаси деярли яйловларда боқилади. Ушбу худудларда яшайдиган аҳоли моллари сараланиб олинди.

Ориентобильгарциоз кўзғатувчиларининг ривожланиши ва тарқалиши чучук сувда яшовчи моллюскаларга боғлиқлиги сабабли, бу касаллик сувли худудларда – булоқлар, ҳавзалар, кўл ва кўлмак сувлар, ариқлар ва ботқоқли яйловлар бўлган жойларда кенг тарқалган. Чорвачилик соҳосига ойниқса аҳоли, шахсий ёрдамчи, дехкон ва фермер хўжаликларидаги чорва молларига катта иқтисодий зарар етказадиган асосий гелминтоз касаллиги бу фасциолез ва ориентобильхарциоз аралаш формасидан эканлиги маълумотлардан аниқланган.

Тадқиқот натижалари- Ҳайвонлар екки гуруҳга ажратилди. Гуруҳлардагилар ичида ориентобильхарциоз ва фасциолёз касалликларга гелминтокапрологик текшириш учун еки гуруҳга бўлиб таҳлил ишлари олиб борилди. Ушбу моллардан лабораторик текшириш учун намуналар олинди.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Олинган намуналар Республика ва Кегейли туман ветеринария лабораторияда гельминтокапрологик услубда текширилди. **(1-жадвал).**

1-гурухдаги (фасциолёз) – қорамоллардан 30 бош сараланиб намуналар олиниб ва молларнинг тезак намуналари кетма-кет ювиш усули билан текширилиб, уларнинг 43 фоизида фасциолалар топилганлиги, улардан 13 бош қорамолларда фасциолёз касаллиги борлиги аниқланган.

2-гурухдаги (ориентобильгарциоз) қорамоллардан 30 бош сараланиб намуналар олиниб, молларнинг намуналари кетма кет ювиш усули текширилиб, уларнинг 16 фоизида ориентобильхарциола ва фасциолёларнинг аралаш формаси топилганлиги, улардан 5 бош қорамолларда ориентобильхарциоз касаллиги аниқланган.

Таҳлил натижаларига кўра, ҳайвонларда ўтказилган гелминто-овоскопик текшириш натижалари шуни кўрсатдики, аҳоли қорамолларида фасциолёзнинг, ориентобильгарциоз касалликларига нисбатан касалланиш даражаси юқори бўлганлиги кўзатилди. Изланишлар шуни кўрсатдики, аҳолининг яйловларда боқилаётган қорамолларнинг фасциолёз билан зарарланиш даражаси, яъни инвазия интенсивлиги юқори даражада бўлиб, текширилган ҳайвонлардан топилган фасциолалар сони ўртача 63 фоизни ташкил этди. Худудларда ориентобильгарциоз касаллигига нисбатан фасциолёз билан касалланиш кўп эканлиги, айрим ҳолатларда иккида касаллик бирданига аралаш (смешенной) формада ўчрашгани тасдиқланди. Шуниндек профилактик эмлаш ишларини доимий мунтазам олиб бориш кераклигини тасдиқлади.

Таклиф ва хулосалар

-Қорақолпоғистон Республикаси шароитида яйловларда боқилаётган аҳоли қорамолларида фасциолёз касаллигининг, ориентобильхарциоз касаллигига нисбатан фасциолёз билан зарарланиш даражаси, яъни инвазия интенсивлиги юқори даражада бўлганлигини кўрсатти.

-Гельминтокапрологик текшириш натижасига кўра, касаллик аралаш формада яъни 10:1 нисбат кўзатилганлиги аниқланди.

-Қорақолпоғистон Республикаси шароитида қорамолларда учрайдиган гельминтоз касалликларини олдини олиш ва даволашда янги замонавий антигельминтиклардан фойдаланиш самарали яхши натижа беради.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

-Дегельминтизация ишларидан сўнг фойдаланилган антигельминтиклар таъсир этиш натижалари ва самарадорлигини аниқлаш лозим.

-Қорамолларга ориентобильхарциоз касаллигини олдини олиш ва эмлаш ишларини олиб боришни йилига 3 мартаба, 1-марта май ойида, 2- марта сентябрь ойида, 3-марта декабрь-январь ойларида доимий мунтазам олиб бориш тавсия этилади.


Фойдаланилган адабиётлар

1.Абуладзе.К.И. Демидов.Н.В.Непоклонов.А.А. Никольский.С.Н. Павлова.Н.В. Степанов.А.В. “Паразитология и инвазионные болезни с\х животных” 1990 год Москва Агропром издат 49-76 стр.

2.Орипов А. О., Давлатов Р. Б., Йулдашев Н. Э. ”Ветеринария гельминтологияси” ўқув қўлланма 2016 йил “Наврўз” нашриёти Тошкент

3.Азимов Д. А. “Эпизоотология ориентобильхарциоза жвачных животных в Узбекистане”. 1966 год. Стр 3-7 Материал науч коонф ВОГ.

4.Орипов А. О., Йулдашев Н. Э, “Фасциолез, ориентобильхарциоз ва парафистоматозларнинг олдини олишда моллюскаларга қарши курашиш” “Зооветеринария” № 12 2012 - Б 20-23, № 1 2013–Б 22-26





Jarrohlik va laboratoriya asboblarini sterilizatsiya qilishda ishlatiladigan kimyoviy sterilizatsiya apparatlarini samaradorligini oshirish

Tashev Bekjigit Jonanbek o'g'li

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Barotova Sevara Xayrullo qizi

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Xaitov Farxod Nasriddin o'g'li


Toshkent tibbiyot akademiyasi
Termiz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jarrohlik va laboratoriya asboblarini sterilizatsiya qilishda ishlatiladigan kimyoviy sterilizatsiya apparatlarini samaradorligini oshirish usullari tahlil etiladi. Kimyoviy sterilizatsiya — mikroorganizmlarni yo'q qilish uchun kimyoviy moddalar va jarayonlardan foydalanish usuli bo'lib, tibbiyot va ilmiy laboratoriyalarda keng qo'llaniladi. Bu maqolada sterilizatsiya apparatlarining ishlash prinsiplari, kimyoviy moddalarning ta'siri va samaradorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируются методы повышения эффективности химических аппаратов стерилизации, используемых для стерилизации хирургических и лабораторных инструментов. Химическая стерилизация — это метод, который использует химические вещества и процессы для уничтожения микроорганизмов и широко применяется в медицине и научных лабораториях. В статье подробно рассматриваются принципы работы аппаратов стерилизации, воздействие химических веществ и подходы, направленные на повышение эффективности.



Abstract

This article analyzes the methods for improving the efficiency of chemical sterilization apparatus used in the sterilization of surgical and laboratory instruments. Chemical sterilization is a method that uses chemicals and processes to eliminate microorganisms and is widely used in medicine and scientific laboratories. This article provides detailed information about the working principles of sterilization apparatus, the effects of chemical substances, and approaches aimed at improving efficiency.

Kalit soʻzlar: kimyoviy sterilizatsiya, samaradorlik, sterilizatsiya apparatlari, mikroorganizmlar, kimyoviy moddalar, jarrohlik asboblari, laboratoriya asboblari.

Ключевые слова: химическая стерилизация, эффективность, стерилизационные приспособления, микроорганизмы, химические препараты, хирургические инструменты, лабораторный инструментарий.

Kirish

Kimyoviy sterilizatsiya — mikrobial kontaminatsiyalangan asbob-uskunalarni, jarrohlik va laboratoriya asboblarini toʻliq dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish uchun ishlatiladigan samarali usuldir. Bu usul mikroorganizmlarni yoʻq qilish yoki faoliyatini bloklash uchun kimyoviy moddalardan foydalanadi. Jarrohlik va laboratoriya asboblari oʻta nozik boʻlishi mumkin, shu sababli kimyoviy sterilizatsiyaning samaradorligi va uning xavfsizligi juda muhim hisoblanadi. Bu maqolada kimyoviy sterilizatsiya apparatlarining ishlash prinsiplari, ularga taʼsir qiluvchi omillar va samaradorligini oshirish usullari haqida batafsil maʼlumot beriladi.

Asosiy qism

Tibbiy asboblarni sterilizatsiya qilish tibbiy asbob-uskunalardan mikroblar hayotining barcha shakllarini, jumladan, bakteriyalar, viruslar va sporalarni yoʻq qilish jarayonini nazarda tutadi. Bu qurilmalarning sogʻliqni saqlash sharoitida foydalanish uchun xavfsiz boʻlishini taʼminlaydi. Sterilizatsiya usullari qurilma turiga va uning moddiy



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

tarkibiga qarab farqlanadi. Umumiy texnikalar orasida bug'li avtoklav, etilen oksidi gazi va radiatsiya mavjud.


Sterilizatsiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Sterilizatsiya maqsadi	Tavsif
Mikroblarning hayotini to'liq yo'q qilish	Kasallikning tarqalishini oldini olish va bemor xavfsizligini ta'minlash uchun zarur.
Sterillik kafolati darajasi (SAL)	Buni kutish sifatida belgilangan <u>1 milliondan 1 dan kam</u> qurilmalarda bakteriya sporalari mavjud.
Sterilizatsiya usullari	Avtoklavlash, bug'langan vodorod periks, radiatsiya va etilen oksidi gazini o'z ichiga oladi.

Kimyoviy sterilizatsiya apparatlari, mikroorganizmlarga ta'sir qiluvchi kimyoviy moddalardan foydalangan holda asboblarni sterilizatsiya qiladi. Ushbu jarayon mikroorganizmlar bilan reaksiyaga kirishib, ularning hujayra devorlarini, oqsillarini va nuklein kislotalarini yo'q qiladi, natijada mikroorganizmlar o'ladi yoki faoliyatini to'xtatadi.

Kimyoviy sterilizatsiya apparatlari quyidagi usullar orqali ishlaydi:

- Aldehidlar: Formaldegid va glutaraldegid kabi moddalardan foydalanish mikroorganizmlarning hujayra tuzilishini buzadi, ularni o'ldiradi.
- Halogenlar: Klor va brom kabi halogenlar mikroorganizmlar hujayra membranasini shikastlaydi, oqsillarni denaturatsiya qiladi.
- Alifatik alkohollar: Etanol va izopropanol bakteriyalar va viruslarni o'ldirishda samarali bo'lib, ularning hujayra membranasini buzadi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


- Oksidlovchilar: Kaliy permanganat va vodorod peroksidi kabi oksidlovchi moddalar mikroorganizmlar hujayrasidagi organik birikmalarni oksidlaydi va o'ldiradi.

Kimyoviy sterilizatsiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun bir qancha omillarni hisobga olish kerak:

- Kimyoviy moddalarning tanlovi: Turli mikroorganizmlarga qarshi samarali kimyoviy moddalarning tanlovi muhim ahamiyatga ega. Bakteriyalar, viruslar va zamburug'lar turli moddalarga sezgir bo'lganligi uchun, kimyoviy moddaning turini tanlashda to'g'ri yondashuv zarur. Misol uchun, aldehidlar ko'proq bakterial infeksiyalar uchun samarali bo'lsa, oksidlovchilar viruslar va zamburug'lar uchun samarali bo'lishi mumkin.
- Kimyoviy moddalarning konsentratsiyasi va vaqt: Kimyoviy sterilizatsiya samaradorligi, ishlatilgan moddaning konsentratsiyasiga va uning sterilizatsiya jarayonida asboblarga ta'sir qilish vaqtiga bog'liq. Agar kimyoviy moddaning konsentratsiyasi past bo'lsa yoki uning ta'sir qilish vaqti qisqa bo'lsa, sterilizatsiya jarayoni samarali bo'lmasligi mumkin.
- Temperatura va pH darajasi: Kimyoviy moddalarning samaradorligi yuqori temperatura va ma'lum pH sharoitida yaxshilanadi. Agar kimyoviy modda yuqori haroratlarda ishlatilsa, uning aktivligi ortadi, bu esa mikroorganizmlarni tezda yo'q qilish imkonini beradi.
- Kimyoviy moddalarni aralashtirish: Ba'zi kimyoviy moddalar birgalikda ishlaganda yanada samarali bo'lishi mumkin. Masalan, etanol va kloroksid moddalari birgalikda ishlatilganda mikroorganizmlarga qarshi yuqori samaradorlikka erishiladi.

Yangi texnologiyalar yordamida kimyoviy sterilizatsiya apparatlarining samaradorligini oshirish mumkin.

- Elektrokimyoviy sterilizatsiya: Bu usulda elektr toki orqali kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish orqali mikroorganizmlarni samarali tarzda yo'q qilish mumkin.
- Nanotexnologiyalar: Nanomateriallar yordamida kimyoviy moddalar mikroorganizmlarga yanada samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Nanopartikulalar





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

mikroorganizmlarning hujayra devorlariga kiritilib, o'ldirish jarayonini kuchaytiradi.


- Intellektual tizimlar va avtomatizatsiya: Kimyoviy sterilizatsiya jarayonlarini avtomatlashtirish, jarayonning doimiy monitoringi va optimallashtirilgan parametrlar yordamida samaradorlikni oshirish mumkin. IoT texnologiyalari yordamida kimyoviy moddalarning ishlash vaqti va konsentratsiyasini real vaqtda nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa

Kimyoviy sterilizatsiya apparatlari jarrohlik va laboratoriya asboblari samarali dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Samaradorlikni oshirish uchun kimyoviy moddalarning to'g'ri tanlovi, ularning konsentratsiyasi va ta'sir qilish vaqti, shuningdek, yangi texnologiyalardan foydalanish muhim rol o'ynaydi. Innovatsion yondashuvlar va avtomatizatsiya orqali kimyoviy sterilizatsiya jarayonining samaradorligini yanada oshirish mumkin, bu esa tibbiyot va ilmiy laboratoriyalardagi xavfsizlikni ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. O'.O.Oripov, Sh.N.Karimov "Umumiy xirurgiya". «Yangi asr avlodi», 2008-y
2. A.J. Hamrayev, A.V. Alimov, T.S. A'zamxo'jayev "Xirurgiya va reanimate-siya asoslari" 2017-yil
3. "Клиническая хирургия" Авторы: В.И. Шалака, В.Г. Голубкин, А.Г. Харитонов 2016
4. "Стерилизация и дезинфекция. Практическое руководство" Авторы: Н.А. Богданов, В.В. Козлов 2014
5. "Современные технологии стерилизации медицинских инструментов" Автор: С.В. Лазарев 2016





ABU RAYXON BERUNIY ASARLARINING XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Aminov Rahmatjon Iskandar o'g'li


Berdaq nomidagi QDU magistranti.

Abu Rayhon Beruniyning asarlari nafaqat sharq, balki butun dunyo tarixshunosligi va ilmiy tadqiqotlarida muhim o'rin tutadi. Uning ilmiy yondashuvi, aniq kuzatishlari va turli madaniyatlarni o'rganishdagi metodologiyasi hozirgi zamon olimlari uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Beruniyning merosi xorijlik olimlar tomonidan doimiy ravishda o'rganilib, uning ilmiy yutuqlari xalqaro miqyosda qadrlanmoqda.

Beruniyning ilmiy merosi keyingi ikki asrda xalqaro miqyosda keng tadqiq qilingan. Uning tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan (1973-yil) UNESCO tomonidan xalqaro miqyosda nishonlangan. Shuningdek, uning asarlari va ilmiy yutuqlari haqida ko'plab xalqaro konferensiyalar va seminarlar o'tkazilgan.

O'zbekiston beruniyshunoslari G'arb olimlarining Beruniy ilmiy merosining ayrim yunalishlari buyicha amalga oshirgan tadqiqotlarini birinchilarda bo'lib yoritishga harakat qilganlar. Xususan, taniqli beruniyshunos P.G.Bulgakov Beruniyning ilmiy ijodi va asarlarini batafsil ta'riflash va yoritishga bag'ishlangan kitobida ko'tarilgan mavzular buyicha G'arb olimlarining xizmatlarini ham yoritib berishga harakat qiladi. Uning kitobida G'arb beruniyshunosligi buyicha o'sha davrda ma'lum bo'lgan bibliografik ma'lumotlar keltirilgan va Beruniy merosini umumiy ta'riflash jarayonida tabiiy fanlar sohasida tadqiqot olib borgan G'arb olimlarining alloma merosini o'rganishdagi xizmatlari sharqshunoslik fani nuqtai nazardan qayd etilgan.

G'arb olimlarining Beruniyning falsafaga oid ilmiy asarlarini o'rganish borasidagi xizmatlarini maxsus tahlil qilishni I.M.Mo'minov, M.M.Xayrullaev, O.F.Fayzullaev va boshqa falsafa tarixchilarining nazariy-uslubiy ahamiyatga ega asarlariga tayangan holda o'zbek beruniyshunoslari ichida A.Nosirov va A.Sharipov boshlab berganlar. Aytish kerakki, ushbu mualliflar asarlarida sobiq sho'ro davrida G'arb beruniyshunoslari





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

“burjua” olimlari sifatida baholangan. Shu bilan birga ular Yevropa olimlarining faktologik, aniq ilmiy natijalarini ijobiy baholab, tadqiqotlarining ba’zi bir nazariy-uslubiy tamoyillarini tan olishgan.


XIX asrdan boshlab Ovro‘po va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag‘ishlangan ovro‘polik olimlar J.Reno, E.Zaxau, G.Zuter, E.Videman, K.Nallino, J.Sarton, R.Rayt, M.Meyerxof kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amriqolik tarixchi olim J.Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o‘z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V.R.Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma’nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi[4:146].

Beruniyning asarlari, xususan, "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" ("Kitob al-Āthār al-bāqiya ‘an al-qurūn al-khāliya") va "Hindiston" ("Kitāb taḥqīq mā li-l-Hind") kabi asarlari Yevropa va Sharq olimlari tomonidan keng o‘rganilgan. Uning hind madaniyati, astronomiya, geografiya va tarixga oid tadqiqotlari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tez-tez tilga olinadi.

G‘arbda Beruniyshunoslikning ochilishi sharafiga Berlin Qirollik Universiteti professori Edvard Zaxau (Eduard Sachau 1845-1930) sazovor bo‘lgan. U XIX asrning oxirgi choragida Hindistonga oid Beruniy risolasining arabcha matnlarini (Kitob tahi q ma li-l-Hind) tahrir qildi. Zaxau ushbu asarlarda Biruniy hayoti, asarlari va metodologiyasi haqida batafsil muqaddimalarni nashr etdi. Bundan tashqari, u Beruniy tomonidan ko‘rsatilgan aniq ilmiy masalalarga bag‘ishlangan boshqa maqolalar ham yozgan[3:20].

XIX–XX asrlarda Yevropa sharqshunoslari (orientalistlar) Beruniyning asarlarini tarjima qilish va tahlil qilish bilan shug‘ullanganlar. Masalan, nemis sharqshunosi Eduard Zaxau (Eduard Sachau) Beruniyning "Hindiston" asarini ingliz tiliga tarjima qilib, uning ilmiy ahamiyatini ta’kidlagan. Bu tarjima Beruniyning g‘arbda tanilishiga katta hissa qo‘shdi[6].

Zaxauning birinchi nashr etilgan asarlari 1878-yilda Beruniyning "al-Asar al-baqiya an al-qurun al-haliya" asarining arabcha matni edi. Asar nemischa muqaddimadan iborat bo‘lib, nemischa "Chronologie orientalischer Volker" nomi bilan nashr etilgan. Zaxauning






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

muqaddimasi muallifning shaxsiyati, ahamiyati, asarining mazmuni va uslubi haqida sharhlovchi Beruniy ning batafsil biografiyasini o'z ichiga oladi.

«Hindiston» nomli kitobning arabcha matni 1887 yili, inglizcha tarjimasida esa 1888 yili Londonda E.Zaxau tomonidan nashr etiladi. Arabcha matn 1858 yili Haydarobodda ham nashrdan chiqarilgan[13:16]. Olimning hind fani va tarixiga oid o'limas asariga hind olimlari ham yuksak baho berishdi. 1944 yilda yirik hind olimi Hamid Rizo «Hindistonning madaniy xizmati» degan asarida: «Urta asr va yangi zamon avtorlaridan hech biri ham hind madaniyatining chigal masalalarini chuqur ilmiy ruhda tushunishda o'limas Abu Rayhon Muhammad Beruniy erishgan yutuqlarga erisha olmadi. Uning «Hindiston» asari klassik namuna bo'lib qolishi bilan birga, o'z avtorining qadimgi hind madaniyati va faniga qilgan tortig'idan iboratdir», - deydi[9:51].

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi nafaqat O'rta Sharq, balki butun dunyo tarixshunosligi uchun muhim ahamiyatga ega. Uning asarlari va kashfiyotlari bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo'lib, uning ilmiy yondashuvi zamonaviy olimlar uchun namuna hisoblanadi. Xorijiy olimlar Beruniyning tarix, astronomiya, geografiya va boshqa sohalaridagi hissasini chuqur o'rganib, uni dunyo madaniyati va ilmfanining buyuk shaxsi sifatida qadrlaydilar. Misrlik tarixchi A. I. Sabra Beruniyning ilmiy metodologiyasini zamonaviy ilmiy usullarning prototipi sifatida ko'rsatgan.

Beruniyning mutaxassislar uchun, xususan, matematika va astronomiya bilan bog'liq masalalarda yozganligi, Tomas Kuh o'zining "Ilmiy inqiloblar tuzilishi" asarida tushuntirganidek, bu fanlar o'z davrida rivojlanishning ilg'or bosqichida bo'lganidan dalolat beradi. Kuhning so'zlariga ko'ra, olimlar ushbu fanga tegishli fundamental masalalar bo'yicha ilmiy hamjamiyat o'rtasida keng konsensusga ega bo'lmaguncha, maxsus auditoriya uchun yoza olmaydi. Kuh tili bilan aytganda, Beruniy "normal ilm"ning amaliyotchisi bo'lgan, ya'ni uning tadqiqoti "bir yoki bir nechta o'tmishdagi ilmiy yutuqlarga qat'iy asoslangan bo'lib, ba'zi bir ilmiy hamjamiyat ma'lum vaqt davomida uning keyingi amaliyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladi". Beruniy Ptolemey astronomiyasi va Evklid geometriyasi an'analariga asos solgan. Uning yozuvlari, har doim, bu an'analar doirasida, juda ixtisoslashgan edi. Boshqa tomondan, Beruniyning hindlarning madaniy amaliyotlari va urf-odatlarini kabi boshqa mavzulardagi asarlari kengroq auditoriyaga qaratilgan. Bu Beruniy uslubi va mazmunining uyg'unligi bo'lib,



uni zamondoshlaridan ajratib turadi. Uning ishi u shug'ullangan ko'plab turli fanlarga asoslangan[13:16].

XIX asr oxirida: italyan sharqshunosi I.Fiorini (Abu Rayhon Beruniyning kartografik proeksiyalari); XX asr boshlarida nemis olimi G.Zuter o'zining Sharqda aniq fanlar tarixiga bag'ishlangan ishlarida Abu Rayhon Beruniyning bu sohadagi xizmatini qisqacha eslatib o'tgan va uning xordalar (1910–1911) va osmon jismlarini tekis yuzaga tushirishga (1922) bag'ishlangan risolalarini ham tarjima qilgan. Liviyalik filolog olim L.Sheyx 1908 yili Abu Rayhon Beruniyning «Faxriy sekstanti» risolasining arabcha matnini chop ettirdi. Italyan olimi K.Nallino o'z tadqiqotlarida (1911) Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi kosmogoniya, astronomiya, jumladan hind astronomiyasi tushunchalari, Erning hajmini aniqlash kabi masalalarni tahlil qilgan[13:126-127].

Beruniyning asarlari, ayniqsa “Hindiston” (“Kitob al-Hind”) va “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” (“Al-Asor al-Boqiya”) kabi asarlari, G'arb olimlari tomonidan keng tadqiq qilingan. Uning Hindiston haqidagi asari Sharq madaniyati va dinlari haqida noyob ma'lumotlar beradi.

Beruniyning astronomik kuzatishlari va hisob-kitoblari Yevropa olimlari tomonidan qayta ko'rib chiqilgan. Uning Yer radiusini hisoblash usuli zamonaviy astronomiyada ham e'tirof etiladi.

Beruniy tarixni o'rganishda ilmiy yondashuvni qo'llagan. U manbalarni tanqidiy tahlil qilish, faktlarni tekshirish va xronologiyani aniq hisoblash usullarini ishlab chiqqan. Bu metodologiya xorijiy tarixshunoslar tomonidan yuqori baholanadi.

Beruniy turli madaniyatlar, dinlar va tillarni qiyosiy o'rganishga katta e'tibor bergan. Uning bu yondashuvi zamonaviy madaniyaro tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Beruniyning hayoti va ilmiy merosi haqida dunyoning turli mamlakatlarida konferensiyalar o'tkaziladi, maqolalar va kitoblar nashr etiladi. Masalan, Germaniya, Rossiya, Hindiston va AQShda uning asarlari tarjima qilinib, tadqiq qilinadi.

Beruniyning geografik, astronomik va tarixiy kashfiyotlari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda tez-tez tilga olinadi. Uning ilmiy yondashuvi va aniq hisob-kitoblari bugungi kunda ham olimlar uchun namuna hisoblanadi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” («Al-osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya») asari qadimgi Xorazmda o‘tgan xalqlarning, qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlarini, an‘analari, bayramlari, taqvimlari, dinlari, payg‘ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma‘lumotlarni o‘zida to‘plagan yaxlit ensiklopediya bo‘lib, u Yevropada “Xronologiya” nomi bilan mashhurdir. Bu asarni olim 27 yoshida, ya‘ni 1000-yili yozib tugallagan. Asar arab tilida yozilgan va Qobus ibn Vashmgirga bag‘ishlangan[7:7].

«O‘tmish yodgorliklari»ning arab tilidagi qo‘lyozmalari asosida tuzilgan tanqidiy tekstini birinchi bor nemis olimi E. Zaxau 1876— 1897 yillari Leypsigda e‘lon qildi. 1879 yili esa uning ingliz tiliga qilingan tarjimasini E. Zaxau Londonda bostirib chiqardi. «O‘tmish yodgorliklari»ning rus tiliga qilingan tarjimasini sharqshunos olim M. A. Sale amalga oshirgan[14:9].

G‘arb beruniyshunoslarining xizmatlarini baholashda izchil marksistik nuqtai nazardan yondashish nemis olimi G.Leyning kitoblarida o‘z aksini topgan. G‘arb olimlarining o‘z dunyoqarashi va falsafiy mavqeidan kelib chiqib chiqargan xulosalari u tomonidan g‘ayri ilmiy va soxta deb baholangan.

Dj. Neru Abu Rayhon Beruniyga quyidagicha baho beradi: «Beruniy yunon falsafasini o‘rganib, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun Sanskrit tilini o‘rgandi. Beruniy hind va yunon falsafasini bir-biriga solishtirib, bularda mavjud bo‘lgan umumiylikni ko‘rib hayratda qoldi. Beruniyning kitobi faktik materialni qamrab olish bilan birga, u urush, talon-taroj, ommaviy qirg‘inlar bo‘lishiga qaramay, fan ahllari o‘z ishlarini davom ettirganliklarini ko‘rsatib beradi. Ikki orani nafrat va xudbinlik kayfiyatlari buzib turgan paytlarda ham Beruniy begona odam bo‘laturib, bu o‘lka kishilari ahvolini tushuntirishga harakat qiladi»[2:246-247].

AQShning Markaziy Osiyo va Kavkaz instituti direktori Frederik Starr Beruniy hayoti va ilmiy faoliyatiga oid izlanishlaridan kelib chiqib, quyidagi fikrlarni bayon etgan edi: “Kimyo fani sohasida Markaziy Osiyoliklar reaksiyalarni qaytarishga, kristallizatsiyadan kimyoviy tozalashning bir vositasi sifatida foydalanilgan, go‘yo Dmitriy Mendeleevning 1871 yilgi davriy jadvaliga poydevor yaratish maqsadida muayyan tortish kuchini o‘lchash va uni chuqur elementlarida qo‘llash kabi yutuqlarga erishdilar”. Bu orqali Frederik Starr Abu Rayhon Beruniy qadimgi Rim sivilizatsiyasi





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


bilan Yevropa Uyg'onish davri sivilizatsiyasini o'zaro birbiri bilan bog'lagan mutafakkirdir, deb ta'riflagan[12:87].

Shuningdek, Jorj Sarton ham buyuk bobokalonimizga yuqori baho beradi: "Dunyo fani tarixida XI asrning birinchi yarmi Beruniy davridir. Beruniy o'z zamonasining ulug' olimi bo'libgina qolmay, balki hamma zamonlarning ham eng ulug' siymosidir"[5].

Beruniyning asarlari musulmon Sharqi madaniyatining so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. So'nggi asarlarda arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo'riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioanni Bar Ebrey (1226—1286) Beruniyga shunday baho beradi: "O'sha o'tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o'tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo'lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir nega yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san'atini o'rgandi va ularga yunon falsafasini o'rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko'p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. Bir so'z bilan aytganda, o'z davrida, undan so'ng va hozirga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo'lmagan". Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, al-Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi[4:146].

XIX asrdan boshlab Ovro'po va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag'ishlangan ovro'polik olimlar J. Reno, E. Zaxau, G. Zuter, E. Videman, K. Nallino, J. Sarton, R. Rayt, M. Meyerxof, osiyo olimlari S. X. Nasr, M. Kozim, S. Baraniy, M. Nizamuddin, Sh. Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodigajuda yuqori baho berdilar. Amriqolik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V. R. Rozen esa, uning ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, unga hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhi xos ekanligini qayd etadi[1].

Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urf-odatlarini tarixini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga nihoyatda yuqori baho beradilar.






Mutafakkir ilgari surgan fikrlarda qandaydir pinhona ichki ma'no borligini bahona qilib, unga asl haqiqatga mutlaq zid bo'lgan qarashlar asosida nisbat berilar edi. Shunga binoan, sobiq sho'rolar davridagi beruniyshunoslar xorijiy olimlar tomonidan alloma ilmiy merosining islom dini yoki hukmron kommunistik mafkuraga zid boshqa g'oyalar bilan bog'liq holda talqin qilinishi bilan g'ayriilmiylik va soxtalashtirishda ayblandilar. Xususan, G'arb olimlaridan A.Shprengerning Beruniy falsafiy qarashlarini idealistik, T.de Buurning esa pozitivistik ruhda tahlil qilishi nafaqat g'ayriilmiylik, balki sinfiy g'arazlik ko'rinishi sifatida baholangan. Shular qatori nemis olimi M.Mayerxof Beruniyning ba'zi bir qarashlarini ortodoksal-sun'iy ruhdagi tasavvurlar deb ta'riflagan. Ularning bu fikrlari ham hukmron mafkura tomonidan sinfiy manfaatlar nuqtai nazardan kelib chiqadigan yondashuv sifatida ayblangan[8:22].

Beruniyning oxirgi asari – «Dorivor o'simliklar haqida kitob»ining qo'lyozmasi XX asrning 30 yillarida Turkiyada topiladi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumot beradi. Dorishunoslikka oid asarlarni umr bo'yi yiqqan Beruniy o'z esdaliklarida qo'yidagi ikkita kitob haqida shunday deydi: «Mening qo'limga bir vaqtda ikkita kitob tushdi birisi «O'tlar kitobi» deb atalib, unda har bir o'tning rasmi bor edi. Bu rasmning qarshisiga uning dorivorligi yunon harflari bilan yozilgan. Ikkinchi kitob VI asrda yashagan qadimgi yunon tabibi Oribasining «Dovalar kitobi» edi. Bu kitobda dorivorlik haqida to'g'ri fikrlarga ishonchim komil bo'lganidan uni arab harfi bilan ko'chirib chiqdim»[11:63].

Shimoliy Karolina Universiteti olimi, nobel mukofoti laureati Aziz Sanjar Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" tarixiy-biografik romaniga so'zboshi yozib, unda Beruniyni buyuk turk mutafakkiri deb yozadi: "Abu Rayhon Beruniy yer yuzining diametrini bugungi o'lchovlarga yaqin bir tarzda hisoblagan va geodeziya ilmiga asos solgan buyuk turkiy mutafakkirdir. Mazkur bilimning asoschisi bo'lmish Beruniy, Hindistonda ekanida trigonometriyaning astronomiyadan ajratilishi kerakligini ilgari surgan va trigonometrik funksiyalarni hisoblagan. O'z tadqiqotlari bilan G'arb dunyosida ham mashhur bo'lgan bu olim Nyutondan avval yerning tortish kuchidan xabar bergan, Galileydan oldin yerning shar shaklida ekanini aytgan. Hayoti mobaynida geometriya, trigonometriya, geodeziya, mineralogiya, tibbiyot va tarixga oid 150 dan oshiq asar yozib qoldirgan"[10:3].





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1


Beruniyning nihoyatda boy va sermazmun ilmiy merosi, uning jahon faniga qo'shgan buyuk hissasi Sharq va G'arb olimlarida, ayniqsa, XIX asrdan buyon katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Shuning uchun ham O'zbekistonda beruniyshunoslikni yanada rivojlantirish uchun chet el, xususan, G'arb olimlari tomonidan bu yo'nalishda erishilgan yutuqlar, boy tajriba bilan tanishish maqsadga muvofiqdir. Lekin Sobiq Ittifoq hududida hukm surgan mustabid sinfiy mafkura ta'sirida G'arb tadqiqotchilari erishgan tajriba va yutuqlarni o'rganish va baholash masalasiga xolis yondashilmadi. Shu bois beruniyshunoslikni bir butun va yaxlit holda tadqiq etish imkoniyati chegaralangan edi. G'arb olimlarining beruniyshunoslik sohasidagi ishlaridan ko'proq faktologik ma'lumotlar sifatida foydalanilar, ularning tarjima va nashr qilish, sharhlash bilan bog'liq materiallari Beruniy asarlarini o'rganish, tarjima va chop etish jarayonida jalb etilar, nazarda tutilar edi[8].

Beruniyning ilmiy uslubi va metodologiyasi zamonaviy tarixshunoslikda yuqori baholanadi. U empirik usullar, tanqidiy tahlil va manbalarga murojaat qilish orqali ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Bu yondashuv zamonaviy tarixshunoslikning asoslaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tarixshunoslikda Beruniyning ilmiy merosi turli jihatlari bilan o'rganilmoqda. Masalan, uning astronomik kuzatishlari, geografik hisob-kitoblari va tarixiy manbalarga tanqidiy yondashuvi zamonaviy olimlar tomonidan qayta baholanadi. Xususan, uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari tarix, astronomiya va kalendar tizimlari haqidagi muhim manba sifatida qaraladi. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi xorijiy tarixshunoslikda muhim o'rin tutadi. Uning asarlari va tadqiqot uslublari nafaqat o'z davri, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Beruniyning xalqaro miqyosda tan olinishi uning universal ilmiy yondashuvi va madaniyatlararo muloqotga qo'shgan hissasini ko'rsatadi.


FOYDALANILGAN ADOBIYOTLAR:

1. Eloktron resurs: <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/abu-rayhon-beruniy-973-1048/>. Qaralgan vaqti 10:29/08/012024
2. Неру Дж. Открытие Индии. –М: 1955 .- С. 246 - 247.





3. Mahan Hussain Mirza. The quest for knowledge: Biruni's method of inquiry. A Dissertation Presented to the Faculty of the Graduate School of Yale University in Candidacy for the Degree of Doctor of Philosophy May 2010. – 29 p.
4. Qurbanov N.N., Allaberganova Sh. B., Karimova R.P. Abadiyat farzandi Abu Rayhon Beruniy. Tashkent Medical Academy. Volume 3 | TMA Conference | 2022.- 146 b.
5. Sarton G. Introduction to the history, of science. Volune I, from Homer to Omar Chayyam Baltimore, 1927. – PP. 693, 707. (Манба олинган жой: Аҳмедов А. “Ҳиндистон”нинг ёзилиш даври ва сабаблари // Беруний Абу Райҳон. Ҳиндистон // Танланган асарлар II. –Т.: «O‘zbekiston» НМИУ, 2022. Б.3.)
6. The quotations which follow will be given both in Arabic (Hyderabad, 1958) and in English (E. C. Sachau, trans., Alberuni's India, London, 1910, reprinted, Delhi, 1964). ee E. C. Sachau, ed. Kitāb al-āthār al-bāqīya 'an al-qurūn al-khāliya (Chronologie orientalischer Volker von Alberūni), Leipzig, 1878, pp. 211-12; trans., The Chronology of Ancient Nations, pp. 194-195.
7. То‘раев В. Abu Rayhon Beruniy. Toshkent, “Tafakkur” 2015. – 7 b.
8. Жўрақулов Ф.Н. Абу Райҳон Беруний табиий – илмий ва ижтимоий - фалсафий меросининг ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши. Фалсафа фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент. 2007. – 22 б.
9. Ирисов А., Носиров А., Низомиддинов И. Ўрта Осиёлик қирик олим. Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти, 1961. – 51
10. Исажон Султон. Абу Райҳон Беруний (тарихий-биографик роман). Тошкент, 2023.- 3 б.
11. Рўзиева Ф. Беруний асарларининг библиографик талқини. «INFOLIB» ахборот-kutubxona хабарномаси. 2022 - Б. 63.
12. Тожиев Д. Абу Райҳон Берунийнинг илмий хазинаси тарихига бир назар.\\ “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal – (2) I/2020. – В. 87.
13. Тураев Б. Беруний – инсониятнинг буюк мутафаккири. – Т.: “Fan ziyosi” нашриёти, 2023. - 16 б.
14. Қажумов А. Беруний ва адабиёт. Тошкент: 1974. – 9 б.





USMON AZIM HIKOYALARIDA BADIY TASVIR VOSITALARI VA KO'CHIMLAR TAHLILI

Javliyev Poyonbek Shavkat o'g'li

*Termiz davlat muhandislik va
agrotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Usmon Azimning ayrim hikoyalari tahlilga tortilib, hikoyada badiiy tasvir vositalari o'zni hamda adabiy asarlarni badiylashtirishda muallif foydalanadigan usul va vositalar ochib berishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar

Uslub, hikoyada badiiy ko'chimlar, adabiy asarlarni badiylashtirish, yozuvchining tasviriy tuyg'ulari, stilizatsiya.

Ko'chimlar va badiiy tasvir vositalari adabiyot va san'atda obrazlilik yaratish, asar mazmunini ta'sirchanroq va qiziqarli qilish, shuningdek, muallif fikrini bilvosita ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Usmon Azim hikoyalarida bu vositalar keng qo'llanib, asarda obrazlilik, tuyg'ularning teranligi va uslubiy yuksaklikni ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, XX asr so'nggi choragidan boshlab badiiy so'z san'atining shiddat bilan o'zgarish va yangilanish jarayoni ancha faollashdi. Eskirgan nazariy qolip va tushunchalarning yemirilishi natijasida ijodkorlar oldida yangicha ijod tamoyillari, yangi-yangi shakllarni kashf etish muammosi paydo bo'ldi. Adib hikoyalarida yangilik sifatida o'ziga xos tasvir usulini yaratdi. Bu esa Ijodkorning ona tilimiz imkoniyatlaridan keng foydalanishida yaqqol namoyon bo'ladi.

Stilizatsiya–“Biror uslubga solib, keltirish yoki monand,o'xshatib asar yaratishdir”(1) uslubidagi badiiy jihatdan pishiq va go'zal asarlar yaratib, uni kitobxon ommasiga taqdim etish, katta mashaqqat, ijodiy kuch talab qiladi. Ijodkorning “Jodu” nasriy to'plamidan joy olgan “Siz bilmaydigan zamonlarda”, “G'oz” kabi hikoyalari shu uslubda yaratilgan nodir asarlar sirasiga kiradi. Adibning hikoyalari badiiy tili xalq tiliga juda yaqinligi bilan ajralib turadi:

“Alpomish chohga tushganini bilasiz. Chohga yarador g'oz qulaganini ham bilasiz. G'ozni otolmagan shakaman mergan oru nomusdan yurak bag'ri ezilib yiqilganini ham bilasiz. Alpomish g'ozni davolab, qanotiga xat boylab, yurtiga elchi qilib uchirganidan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

ham xabaringiz bor. G‘oz yana mergan kulbasi ustidagi tog‘ning boshiga qo‘nib, qang‘illaganidan ham, kasal yotgan ovchi qo‘liga yoy olganidan ham, shu g‘oz o‘lsa Alpomish xor, Qo‘ng‘irot eli zor bo‘lishini xudo ko‘ngliga solgan merganning enasi «hay-hay»lab qushni uchirib yuborganini ham eshitgansiz. Alpomish yurtiga qaytib, Barchin yoriga tasallilar aytib, Yodgor o‘g‘lini bag‘riga bosib, Qo‘ng‘irotning ko‘nglini yozib o‘tganini ham qulog‘ingiz ilib qolgan.”(2)


“G‘oz hikoyasidan keltirilgan mazkur parchada adibning ishlatgan so‘zlarga e‘tibor qaratsak, bular shevaga xos so‘zlardir: *kulba, enasi, qang‘illaganidan, mergan, o‘takasi yorilib;*

Adib qo‘llagan fraziologik birliklar ham o‘ziga xos: *yurak bag‘ri ezilib, xudo ko‘ngliga solgan, bag‘riga bosib, ko‘nglini yozib, qulog‘ingiz ilib qolgan*

Maqolada statistik tahlil va demografik usullardan foydalanilgan. Aholining soni va tarkibiy oʻzgarishlari, hududiy taqsimoti hamda oʻsish koʻrsatkichlari asosida tahlil oʻtkazildi. Maʼlumotlarni qayta ishlash uchun “Excel” dasturiy taʼminoti hamda “SPSS” statistik dasturiy vositalaridan foydalanildi. Maʼlumotlar vizualizatsiyasi uchun grafik va jadval usullari qoʻllanildi.

Maqolada aholi statistikasi boʻyicha kvantitativ va sifatli tadqiqot usullari qoʻllanildi. Asosiy maʼlumotlar milliy statistika qoʻmitalarining hisobotlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ochiq maʼlumotlar bazalaridan olindi. Tahlil uchun regressiya modeli va vaqt qatorlari usullari qoʻllanilib, aholi dinamikasini aniqlashga qaratilgan tahlillar oʻtkazildi.

NATIJALAR

Tahlillar shuni koʻrsatdiki, Oʻzbekiston Respublikasida aholi soni yil sayin ortib bormoqda. Masalan, soʻnggi 10 yil ichida aholi oʻsish surʼati oʻrtacha 1,7 foizni tashkil etdi. Aholining yosh tarkibi yosh guruhlariga nisbatan teng taqsimlanmagan boʻlib, 60



foizdan ortig'i mehnatga layoqatli yoshdagi kishilardan iborat. Hududiy taqsimotga kelsak, aholi asosan Toshkent shahri va Farg'ona vodiysida to'plangan.



1-rasm. O'zbekiston aholisining 2014-2024 yillar oralig'idagi o'sishini ko'rsatuvchi grafik.

Grafikda O'zbekiston aholisining 2014-yildan 2024-yilgacha bo'lgan o'sish dinamikasi aks ettirilgan. Quyidagi jihatlar kuzatiladi:

1. Tendensiya: Grafik chiziqli o'sishni ko'rsatadi, ya'ni aholi soni har yili oshib bormoqda.
2. Boshlang'ich nuqta: 2014-yilda aholi soni 30,5 million kishini tashkil etgan.
3. Eng yuqori ko'rsatkich: 2024-yilda aholi soni 36,7 million kishiga yetishi kutilmoqda.
4. O'rtacha yillik o'sish: Har ikki yilda aholi soni taxminan 0,8-1,0 million kishiga oshgan.
5. Barqaror o'sish: Grafikda keskin pasayish yoki sakrash holatlari kuzatilmaydi, bu aholi sonining nisbatan izchil o'sishini ko'rsatadi.



Ushbu ma'lumotlar demografik o'sishning davom etayotganini va bu ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishda hisobga olinishi kerakligini ko'rsatadi. Aholi sonining oshishi mehnat bozori, infratuzilma va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sishni talab qiladi.

1-jadval. Aholi statistikasi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar va ularning qisqacha izohlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Aholi soni (mln)	35	2023-yil uchun umumiy aholi soni
Urbanizatsiya darajasi (%)	60	Shahar aholisi ulushi
Migratsiya saldosini (ming)	+25	Migratsiya natijasida aholining o'sishi
O'rtacha umr ko'rish yoshi (yil)	72	Erkaklar va ayollar o'rtacha ko'rsatkichi
Ma'lumot darajasi (%)	98	Savodxonlik darajasi

Aholi soni (mln): Bu ko'rsatkich mamlakatning demografik holatini umumiy baholash imkonini beradi.

Urbanizatsiya darajasi (%): Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi, bu urbanizatsiya jarayonlarini tahlil qilishda muhimdir.

Migratsiya saldosini (ming): Aholining migratsiya sababli o'zgarishini aniqlashga yordam beradi.

O'rtacha umr ko'rish yoshi (yil): Sog'liqni saqlash va turmush darajasi bo'yicha muhim indikator.

Ma'lumot darajasi (%): Ta'lim va savodxonlik darajasini o'lchash uchun asosiy ko'rsatkich.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aholi sonining o'sishi va migratsiya jarayonlari iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiya darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibi bo'yicha gender va yosh guruhlari o'rtasidagi farqlar ijtimoiy muammolarni aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, tahlillar aholining ma'lumot darajasi va sog'liqni saqlash tizimi rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatdi.




XULOSA

Aholi statistikasi davlat rivojlanishi uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, aholi o‘sishi va hududiy taqsimoti davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida aholi statistikasi bo‘yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borish, ma‘lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish zarur.

Aholi statistikasi ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aholi statistikasi bo‘yicha muntazam tahlillar olib borish va ularni amaliyotga joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida aholi statistikasi bo‘yicha chuqurroq tadqiqotlar olib borish uchun zamonaviy texnologiyalar va katta ma‘lumotlar tahlilidan foydalanish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Graunt, J. (1662). “Natural and Political Observations... Made upon the Bills of Mortality”.
2. Malthus, T. R. (1798). “An Essay on the Principle of Population”.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (2023). Demografik rivojlanish ma‘lumotlari.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2024). Aholi statistikasi hisobotlari.
5. Jahon Banki (2023). “World Development Indicators”.
6. United Nations Department of Economic and Social Affairs. (2023). World Population Prospects 2023.
7. World Bank. (2022). Global Demographic Trends and Economic Implications.
8. Maltus, T. R. (1798). An Essay on the Principle of Population.
9. Lotka, A. J. (1925). Elements of Physical Biology.
10. Smith, D. P., & Keyfitz, N. (2020). Mathematical Demography.
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). Demografik hisobotlar.



IJTIMOYIY TADBIRKORLIK: JAMIYATNI YAXSHILASH ORQALI FOYDA OLIISH

Razzoqova Gulrux

Moliya yo'nalishi, 123-guruh talabasi

Muzropova Shaxnoza

Annotatsiya

Mazkur maqolada ijtimoiy tadbirkorlik konsepsiyasi, uning jamiyatdagi roli va ahamiyati, iqtisodiy va ijtimoiy foyda o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash usullari yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlikning muvaffaqiyat omillari, uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar va O'zbekiston sharoitida amaliyotga joriy etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Ijtimoiy tadbirkorlik, iqtisodiy foyda, ijtimoiy innovatsiya, jamiyatni yaxshilash, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract

This article discusses the concept of social entrepreneurship, its role and importance in society, and ways to ensure a balance between economic and social benefits. It also analyzes the success factors of social entrepreneurship, factors that hinder its development, and the possibilities of its implementation in Uzbekistan.

Keywords. Social entrepreneurship, economic benefit, social innovation, improving society, economy of Uzbekistan.

KIRISH

Ijtimoiy tadbirkorlik so'nggi yillarda dunyo miqyosida dolzarb masalalardan biriga aylandi. An'anaviy tadbirkorlikdan farqli o'laroq, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi dolzarb muammolarni hal qilish orqali iqtisodiy foyda olishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv inson kapitalining rivojlanishiga, ekologik barqarorlikka va ijtimoiy tenglikka hissa qo'shadi. Maqolaning maqsadi ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslarini va uning amaliyotdagi o'rnini tahlil qilishdan iborat.

Ijtimoiy tadbirkorlik so'nggi yillarda jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun innovatsion biznes modellarni qo'llashni nazarda tutadi. Ijtimoiy tadbirkorlar nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'limni rivojlantirish va ijtimoiy



tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan maqsadlarni amalga oshiradilar. Ushbu maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy tamoyillari, afzalliklari va qiyinchiliklari muhokama qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslarini o'rganishda Muhammad Yunusning ijtimoiy biznes konsepsiyasi katta ahamiyatga ega. U o'zining Grameen Bank tajribasi orqali iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy ta'sirini isbotlagan. Dees (1998) esa ijtimoiy tadbirkorlarni innovatsion yondashuv va barqaror ijtimoiy ta'sir yaratishga qodir lider sifatida tasniflaydi. Dunyoning rivojlangan davlatlarida ijtimoiy tadbirkorlik davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda, masalan, Buyuk Britaniya va Germaniyada ijtimoiy korxonalarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlar tashkil etilgan.

Adabiyotlar tahlili ijtimoiy tadbirkorlikning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Muhammad Yunus (2006) o'zining "Gramin Bank" tajribasi orqali ijtimoiy tadbirkorlikni mikromoliya sohasida qanday qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Dees (1998) ijtimoiy tadbirkorlikni biznes va xayriya faoliyatining uyg'unlashuvi sifatida ta'rifladi. Prahalad (2004) esa kambag'allikni kamaytirishda bozorning quyi qatlamiga xizmat ko'rsatishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu nazariyalar asosida maqolada ijtimoiy tadbirkorlikning turli yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonda esa ijtimoiy tadbirkorlik hali rivojlanish bosqichida bo'lib, ko'proq nodavlat tashkilotlar va donor tashkilotlar faoliyati doirasida amalga oshirilmogda. Shu sababli, ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyatini aniqlash maqsadida chuqur tahlillar o'tkazilishi zarur.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

Nazariy tahlil: Ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar o'rganildi.

Empirik tahlil: O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotiga oid misollar yig'ildi va tahlil qilindi.

So'rov va intervyu: Ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlar bilan suhbatlar o'tkazildi.

Adabiyotlar tahlili: Ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha mavjud nazariyalar va amaliy misollar o'rganildi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Intervyu va kuzatuvlar: Muvaffaqiyatli ijtimoiy tadbirkorlar bilan suhbatlar o'tkazilib, ularning tajribasi tahlil qilindi.

Statistik tahlil: Ijtimoiy tadbirkorlikning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini baholash uchun statistik ma'lumotlar ishlatildi.

NATIJALAR

Ijtimoiy tadbirkorlik orqali jamiyatda bandlik darajasini oshirish va muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilish mumkinligi aniqlangan.

O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlik ko'proq qishloq xo'jaligi va ta'lim sohalarida rivojlanmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy tadbirkorlikning muvaffaqiyati uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi: moliyalashtirish manbalari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va keng ko'lamlı ijtimoiy tarmoq yaratish.

Ijtimoiy ta'sir: Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy natijalaridan biri jamiyatdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan ijobiy ta'sirdir. Masalan, kambag'allikni kamaytirish, ta'lim sifatini oshirish yoki ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Innovatsiyalar: Ijtimoiy tadbirkorlar yangi texnologiyalar va yondashuvlar yordamida muammolarga yechim topadilar.

Iqtisodiy samaradorlik: Ushbu yondashuv daromad keltirish bilan birga, barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA

Ijtimoiy tadbirkorlik jamiyat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv orqali ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarga bir vaqtda erishish imkoniyati mavjud. O'zbekiston sharoitida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat siyosatini takomillashtirish, moliyaviy mexanizmlarni joriy etish va ijtimoiy innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash zarur. Kelgusida ushbu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borilishi ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatni ijobiy o'zgartirishning samarali vositasidir. Ushbu yondashuvning muvaffaqiyati nafaqat iqtisodiy foyda olishga, balki ijtimoiy masalalarni hal qilishga qaratilgan. Maqolada keltirilgan misollar ijtimoiy tadbirkorlikning turli






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

yo‘nalishlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilishini ko‘rsatadi. Kelgusida ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun davlat siyosatini kuchaytirish, ta‘lim tizimida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dees, J. G. (1998). *The Meaning of Social Entrepreneurship*. Stanford University.
2. Yunus, M. (2007). *Creating a World Without Poverty: Social Business and the Future of Capitalism*. PublicAffairs.
3. Bornstein, D. (2004). *How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas*. Oxford University Press.
4. Bicharova, G. (2022). “O‘zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari”. *Iqtisodiyot va Innovatsiyalar Jurnali*, 3(5), 23-29.
5. Leadbeater, C. (1997). *The Rise of the Social Entrepreneur*. Demos.
6. Dees, J. Gregory. "The Meaning of Social Entrepreneurship." Stanford University, 1998.
7. Yunus, Muhammad. *Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty*. PublicAffairs, 2006.
8. Prahalad, C.K. *The Fortune at the Bottom of the Pyramid*. Wharton School Publishing, 2004.
9. Bornstein, David. *How to Change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas*. Oxford University Press, 2007.
10. Nicholls, Alex. *Social Entrepreneurship: New Models of Sustainable Social Change*. Oxford University Press, 2006.





ZOOMORFIK METAFORANING TASNIFI VA SEMANTIK TAVSIFI (SAID AHMAD ASARLARI BO‘YICHA)

Choriyev Jaloliddin Almirzayevich

Xorijiy tillari fakulteti Lingvistika (ingliz tili)

yo‘nalishi 1-kurs magistranti

jaloliddinchoriyev476@gmail.com

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) **Nargiza Suyarova**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Said Ahmad asarlaridagi zoomorfik metaforalar haqida so‘z boradi. Said Ahmadga xos bo‘lgan uslub zoomorfik metaforalar orqali talqin qilinadi.


Kalit so‘zlar: zoomorfik metafora, etalon, semantik tavsif.

Annotation:

This article discusses the zoomorphic metaphors in the works of Said Ahmad, one of the prominent representatives of Uzbek literature. The style characteristic of Said Ahmad is interpreted through zoomorphic metaphors.

Key words: Zoomorphic metaphor, standard (or benchmark), semantic description.

Badiiy asarlarda yozuvchi va shoirlar o‘ziga xos ko‘rinishi uchun zoomorfik metaforalardan unumli foydalanadi. Zoomorfik metafora - bu hayvonlar va ularning tana a‘zolari nomini ifodalovchi leksemalar ma‘nosining metaforik usulda ko‘chishi bo‘lib, bu turga bo‘ri, tulki, ayiq, ilon, it, shox, dum, qanot kabi leksemalarning metaforik ma‘no hosil qilishi kiradi. Metafora orqali ma‘no ko‘chishida konnotativ ma‘no yorqinroq aks etadi. Masalan, ot, eshak, qo‘y, it, bo‘ri, tulki, yo‘lbars, boyo‘g‘li, musicha, burgut, lochin, qaldirg‘och, bulbul kabi hayvon va qushlarning nomlari bo‘lgan leksemalar mavjudki, bu so‘zlar o‘z ma‘nosidan tashqari, ko‘chma ma‘noda juda keng qo‘llanadi. Otning baquvvatligi, eshakning aqlsizligi, qo‘yning yuvvoshligi, itning vafodorligi, mushukning epchilligi, tulking ayyorligi, burgutning changallashdagi kuchliligi, lochinning ko‘zi o‘tkirliigi kabi tipik xususiyatlari boshqa predmetlarga nisbatan metaforik usulda ko‘chiriladi, natijada konnotativ ma‘no yuzaga keladi hamda matnning ta‘sirchanligi oshadi.





Qadimgi davrdan boshlab hayvon, qush va o‘simlik nomlarining badiiy adabiyotga ko‘chishi kuzatiladi. “Devonu lug‘otit-turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarida qushlarning ma‘lum xatti-harakatlari orqali har xil xarakterdagi odamlarning majoziy obrazi yaratilgan. “Qutadg‘u bilig”da qushlar majoziy alohida ahamiyat kasb etib, bunda, ayniqsa, ushbu badiiy detal asarning g‘oyaviy-estetik qimmatini oshirish, tasvirlanayotgan voqelikning mohiyatini chuqurroq ochish, qahramonlarning ichki dunyosi, yaxshilik va yomonlikka asoslangan fazilatlarini obrazli gavdalanitirish kabi maqsadlarga bo‘ysundirilgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojib o‘z asarida bekning xarakter-xususiyatlarini berishda, kuch va mardlik timsollarini ifodalashda arslon va sher timsollaridan foydalangan¹.

Asosan, zoomorfik metaforalar ko‘proq she‘riy shakllarda uchraydi. Masalan, Iqbol Mirzo, Muhammad Yusuf, To‘ra Sulaymon ijodida bu xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasi, "Jimjitlik" romanida davr muammolari, insonlarning ichki his-tuyg‘ulari, kechinmalari zoomorfik metaforalar orqali ifodalanadi va yozuvchigagina xos bo‘lgan uslubni ko‘rsatadi.

"Jimjitlik" romanida keltirilgan ba‘zi zoomorfik metaforalarga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Qashqir so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

"Cho‘qqilar jilvasiga ko‘pam mahliyo bo‘laverma, bolam. Bu tog‘da qashqirlar bor".

Ushbu jumlada qashqir so‘zi dastlab o‘z ma‘nosida tushuniladi. Asar oxirida esa jamiyatdagi yovuz odamlar qashqir timsolida gavdalanadi. Bu yerda nega bo‘ri yoki yo‘lbars bor emas, aynan qashqir bor, semasining ishlatilishi yozuvchiga xos bo‘lgan uslubni yuzaga keltiradi.

2. Kaptar pati orqali hosil bo‘lgan metafora.

Qop-qora sochlari kaptar patidek bo‘lib ketdi".

Ushbu jumla orqali Said Ahmad qush misolida qahramonning holatini akslantirgan. Odatda kaptarning qora patlari biroz namiqqan, ko‘rimsiz holatda bo‘ladi. Yozuvchi o‘z qahramonining holatini kaptar pati orqali o‘quvchiga namoyon qiladi.

3. Chumchuq so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

¹ Мирзоҳидова Л. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2018.





“U inida chumchuq bo‘lib yotdi”. Odatda, chumchuq chaqimchilik etaloni sifatida gavdalanadi, lekin yozuvchi bu jumlasini orqali chumchuqqa xos bo‘lgan boshqa xususiyatni insonga ko‘chiryapti. Chumchuqlar kechasi tinch yotmasdan, ko‘p qimirlaydi. Qahramonning hayot tashvishlaridan kechasi bilan qimirlab, uxlay olmay chiqishini chumchuqning holatiga mengzaydi.

4. Bulbul so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

“Bodomgul bulbul edi”. Bu yerda yozuvchi an’anaviy o‘xshatish usulidan foydalanadi. Badiiy adabiyotda doimo insonning ovozi bulbulga o‘xshatiladi. Bu yerda ham birgina bulbul so‘zi qahramonning xushovozligini bildirib kelmoqda.

5. Burgut so‘zi orqali hosil bo‘lgan metafora.

“Uning burgut ko‘zlaridan ma’no anglash mushkul edi”. Burgut – tezlik, chapdastlik, o‘tkirlik ramzi sifatida talqin qilinadi. Said Ahmad burgutning ko‘zlari bilan insonning ko‘zlarini o‘xshatadi. Qahramonning holatini tasvirlashda “kiyikdek beozor”, “ohuko‘z” metaforalarini emas, balki burgutdek o‘tkir ko‘z sohibi sifatida tasvirlaydi. Bu orqali esa yana bir ichki ma’no – qahramonning salbiy obrazda ekanligini anglash qiyin emas. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarida uch yuzdan ortiq qushlarning insonlar obrazida gavdalanishi bir qarashda xarakter jihatdan bizga notanish insonlarning xususiyatlarini ochib bergan.

Odatda, zoomorfik metaforalardan insondagi illatlarni ifodalashda unumli foydalaniladi. Bu usul albatta, majoziy ma’noni ifodalashda qo‘l keladi. Rossiyalik tilshunos S.Tolstaya aytganidek, hayvonlar metaforasi o‘simlik metaforasidan farqli ravishda insondagi salbiy xususiyatlar bilan ko‘proq bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, said Ahmad ijodida boshqa yozuvchilar ijodida uchramagan yangicha zoomorfik metaforalarni uchratish mumkin. Ushbu metaforalar majoziy ma’noda ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, to‘g‘rilik va egrilik, tozalik va ifloslik, go‘zallik va xunuklik, erkinlik va tutqinlik kabi tushunchalarni ifodalab kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзоҳидова Л. XI-XII асрлар туркий адабиётида мажозий тасвир бадиияти: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2018.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

2. Said Ahmad. Jimjitlik romani.Turon zamin nashriyoti. - Toshkent. 2024
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005. – b.17
4. Norkuziyeva D.Sh. Badiiy adabiyotda zoomorfizmlarni qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2022. – 147-149 b.



SHEROBODDARYO QISHLOQLARI AHOLISI MAROSIMLARINI ETNOGRAFIK TAXLILI

Norqobilov Mansur Norsaitovich

Surxondaryo viloyati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassis

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sheroboddaryo qishloqlari aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik barcha kasb egalari o'zlarining kasbiy pirlariga ega bo'lishgan va ularga atab turli xildagi marosimlarni bajarganlari etnografik taxlil bayon etilgan.

Sheroboddaryo qishloqlarida aholi tig'iz yashaganligidan XX-asrning birinchi yarmida hukumat tomonidan yangi o'zlashtirilgan yerlarga tez-tez ko'chirilib turishiga olib kelgan. Shu bois, Ko'hitangtog' qishloqlari bilan Surxon vohasi va Tojikistonning janubiy mintaqalarida yashovchi aholi madaniyatida umumiylik yuzaga kelganligi etnografik dala yozuvlari va tarixiy manbalar asosida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: Sheroboddaryo qishloqlari aholisining an'anaviy xo'jalik marosimlari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ovchilik, yirik ulamolardan *risola* olishlari, Darveshona, Bobodehqon «suv sulton xotin», «suz xotin», «shox moylar», «loy otar» kabi marosimlar.

Аннотация: В статье представлен этнографический анализ того факта, что жители деревень Шерабаддари, занимавшиеся всеми профессиями, включая земледелие, скотоводство и ремесла, имели своих профессиональных богов и совершали в их честь различные обряды.

Плотная заселенность деревень Шерабаддари привела к частому переселению их на вновь освоенные земли правительством в первой половине XX века. Таким образом, возникновение общих культурных сходств между селами Кохитангтога и народами, проживающими в Сурханском оазисе и южных районах Таджикистана, интерпретируется на основе этнографических полевых записей и исторических источников.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Keywords: Traditional economic rituals of the residents of Sherobodaryo villages: farming, animal husbandry, crafts and hunting, receiving treatises from great scholars, Darveshona, Bobodehkan rituals such as "water sultan wife", "suz wife", "horn oils", "loy atar".

Sheroboddaryo qishloqlarida yashovchi aholining urf-odat va an'analari uzoq asrlar davomida shakllangan bo'lib, kishilarning tabiatga bo'lgan munosabati, hayot ta'minotini yaratish natijasida vujudga kelgan. Tog' qishloqlari aholisi o'z xo'jalik faoliyatlari davomida turli xil marosimlarni o'tkazib kelganlar. Ushbu marosimlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin. Bular: 1) dehqonchilik marosimlari; 2) chorvachilik marosimlari; 3) hunarmandchilik marosimlari; 4) ovchilik marosimlari.

XX-asr boshlarida, hatto Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda ham barcha kasb egalari, shu jumladan, ovchilar ham albatta «risola» olishlari shart edi. Risola yirik ulamolar tomonidan bitta varaqqa yozilib, unda kasb egasi qilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rsatilar edi. Zero shunday qilinsa, ishi yurishib, bemalol kun kechirishi mumkin deb hisoblashgan. Bunday risolalar tumor kabi olib yurilgan. Xalqimiz orasida «xuddi risoladagidek bo'lsin» degan naql ham shundan kelib chiqqan.

Sheroboddaryo qishloqlarida dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar keng tarqalgan bo'lib, ular yilning turli fasllarida o'tkaziladi. Xususan, yiliga bir marta-Yilboshi (Navro'z) oldidan aholi tomonidan «darveshona» marosimi uyushtiriladi.

Darveshona-Alloh yo'lida o'tkaziladigan sadaqadir. Unda odamlar yil yaxshi kelishi, turli xil ofatlardan saqlashni maqsad qilishadi. Marosimni o'tkazish uchun odamlardan pul yig'iladi. Boy kishilar qo'y berishadi. Tegirmonda bug'doy tortib, yorma qilib qaynatiladi. Qo'y so'yib dumbasiga go'shtni qovurishadi. Har bir odamga bir kosadan yorma, kosaning ichiga pishirilgan go'sht solib beriladi. Odamlar «*darveshona — tishga davo*» deb ovqatni yeyishadi. Yetim-yesirlar bu tadbirga to'liq jalb etiladi va ularga ehson ajratiladi. Darveshonada mulla yoki eshon kelib, elga, yurtga tinchlik va omonlik so'rab duo qiladi.

Sheroboddaryo qishloqlari dehqonlari yerni ekinga tayyorlab, urug'ni ivitib qadashdan bir kun oldin *Bobodehqon* marosimini o'tkazadilar. Ushbu marosimda qon chiqarilib (imkoniyatiga qarab, tovuqdan to qo'ygacha), Alloh yo'lga sadaqa qilinadi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Ulamolar Qur'on o'qib, xuddi darveshonada bo'lgani singari Allohdan hosil barakali bo'lsin deb duo qiladilar.

O'rganilayotgan hududda bog'bonlarning piri sifatida hazrati Nuh alayhissalom, suvchilarda esa, hazrati Sulaymon alayhissalom shaxsi muqaddaslashtirilgan. Hazrati Nuh alayhissalom to'fondan keyin yerga birinchi bo'lib novdani qadaganligi uchun bog'bonlar piri sifatida ulug'langan.

Bahorgi yer haydash oldidan *shoxmoylar* marosimi o'tkaziladi. Chilonzor, Xomkon qishloqlarida bu marosim *shox qochov* deyiladi. Negaki, qishki sovuqda buqaning shoxi yorilishi natijasida uning yorilgan uchi odamlar va chorvaga tegib jarohat yetkazishi mumkin. Buni oldini olish uchun oldiniga buqaning shoxi moylanadi. Keyin qochov (maxsus egov) bilan uchi egovlanib, yorilgan joyi olib tashlanadi va to'mtoq holga keltiriladi. Shundan keyin buqa yer haydashga tayyor bo'ladi. Boysuntog' tizmasidagi qishloqlarda esa «shoxmoylar» marosimi vaqtida qo'shiq aytishadi, ayrim kishilar ehson chiqarishadi. Ushbu udum dushanba, chorshanba yoki juma kunlaridan birida o'tkaziladi.

Tog' qishloqlarida har yili mart oyida *loy otar* udumi bajariladi. Bunda qishloqning to'lib qolgan ariqlari hashar yo'li bilan tozalanadi. Har bir kishi o'ziga belgilangan joyni loyqadan tozalaydi. Denov tumanida ham xuddi shunday udum mavjud bo'lib, u «loy tutish» deb ataladi. Farqi shundaki, ariq tozalayotgan kishilar oldidan biror yo'lovchi o'tib qolsa, unga bel yoki ketmonda loy tutishadi. Yo'lovchi uzatilgan ish asbobini loyi bilan birga olib, hasharchilar tomonidan ko'rsatilgan ariqni tozalab berishi, yoki o'zining biror hunarini ko'rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi lozim bo'ladi.

Dehqonchilikning ob-havo bilan bog'liqligi aholi o'rtasida turli udumlarni yuzaga keltirgan. Masalan, 20-fevraldan 21-martgacha bo'lgan sanoqli kunlarning dastlabki 15-kuni *Hut* deyiladi. Bir naqla: *yaxshi kelsa hut, kadi to'la sut, yomon kelsa hut soy to'la put* deb aytiladi. Hutdan keyin kirgan *Ajuzmomo* 6 kun davom etadi. Bu to'g'ridagi naqla: *Ajuzmomo olti kun, yetalasa yetti kun, sakrasa sakkiz kun, to'qraysa to'qqiz kun, o'qraysa o'n kun*, -deyiladi.

Qurg'oqchilik bo'lganda aholi tomonidan suv chaqirish marosimlari o'tkaziladi. Ko'hitangtog' qishloqlarida bu marosim «Suv sulton xotin» yoki «Suz xotin», o'zbek laqaylarida esa «sus xotin» deb ataladi.





Marosimning boshqa shakli «Suz xotin» deyiladi. Bunda kattagina yog‘ochdan qo‘g‘irchoq xotin yasaladi. So‘ngra marosim egasi xo‘roz so‘yib sadaqa chiqaradi. Bunda, albatta, qichqiriq xo‘roz so‘yiladi. Uy egasi niyat qilib qo‘g‘irchoqni o‘choq boshiga olib keladi va uni yerga tikka qilib qo‘yadi. O‘choqdan chiqqan tutun zarar qilmasligi uchun qo‘g‘irchoqni qozondan bir-ikki metr narida qo‘yishadi. Dasturxonga ovqat tortilganda qo‘g‘irchoq ham dasturxon boshiga olib kelinadi. Ovqatga duo o‘qilgach, barcha qo‘g‘irchoqni o‘rtaga olib o‘ynatadi va atrofidan aylangan holda marosim qo‘shig‘ini kuylashadi. Marosim tugagach, qo‘g‘irchoqni maxsus qurilgan kichik uychaga kiritib qo‘yishadi. Xalq «Suz xotin»ni xuddi (suvdami yo falakda) suzayotgan ayoldek tasvirlagan. Shuning uchun ba‘zan «sulton» so‘zining o‘rniga «suzdon» so‘zini qo‘shishadi.

Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek laqaylarida yomg‘ir yog‘may qurg‘oqchilik xavfi yuzaga kelgach, qishloq oqsoqollari maslahatlashib, qiziqchi bitta erkakka ayolning kiyimlarini kiygizib, eshakka teskari o‘tirg‘izib, «sus xotin» qo‘shig‘ini aytib, eshakni uyma-uy yetaklab yuradilar. Uy egalari bu «sus xotin»ning ustidan suv quyib, imkon qadar biron narsa berganlar. Keyin quduq, buloq yoki daryoning boshiga borib, odamlar bir-birining ustiga suv sepishib, yig‘ilgan xayru-ehsonni o‘rtaga qo‘yishib, birga yeyishib, Yaratgandan yomg‘ir yog‘dirishni so‘rashadilar.

Qo‘g‘irchoq ishlatib yomg‘ir chaqirish marosimi Kavkazda yashovchi turkiy xalqlarda ham qayd etilgan. Qozon tatarlari o‘tkazadigan yomg‘ir chaqirish marosimida qo‘g‘irchoq bo‘lmaydi. Uning o‘rniga qurbonlik ovqati yeb bo‘linganidan keyin kunning qolgan qismida yoshlar yo‘lida uchragan har bir kishisiga suv sepishadi. S.Ye.Malovning yozishicha, bu odat qurbonlik oshi bilan birga qurg‘oqchilik vaqtida yomg‘ir chaqirishdagi shamanlik vositasi hisoblanadi.

Odatda yomg‘ir chaqirish marosimi fevraldan, ya‘ni kichik chilla tugab, hut kirishidan to aprelga qadar bo‘lgan vaqtlarda o‘tkaziladi. Marosim o‘tishi bilan yomg‘ir yog‘a boshlagach, dehqonlar yer haydab, bug‘doy ekayotgan vaqtda bir qo‘lida o‘sha qo‘g‘irchoq, bir qo‘lida bug‘doy bo‘ladi. Yerga urug‘ sepayotgan vaqtda marosim qo‘shig‘ini kuylashadi. «Suz xotin» marosimi yakunida qo‘g‘irchoq kuydiriladi yoki eski quduqqa tashlanadi.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Nima uchun qo'g'irchoqda aynan ayol obrazi berilgan? Sababi, qadimgi turkiy xalqlarda ayol muqaddas, ulug'lik hamda baraka timsoli hisoblangan. Shu bilan birga, «Suz xotin» marosimi ko'p jihatdan qadimgi ajdodlarimizning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, qadimgi xorazmiylar ispanormaji oyining o'ninchi kunida *vaxshangam* degan hayit bayramini nishonlashgan. *Vaxshangam* – Vaxsh suviga, ayniqsa, Jayhun suviga vakil qilingan farishta ismidir. Kushon tangalarida uchraydigan *Ardoxsho* ma'budasining nomi «Oxsho ruhi» ma'nosida kelib, tadqiqotchilar tomonidan *Vaxsh* so'ziga to'g'ri kelishi aniqlangan. Qadimgi baqtriyaliklar *Oxsho* (*Oaxsho*) xudosiga atab ibodatxona (Tojikistondagi Taxti Sangin) ham qurganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Termiz yaqinida joylashgan Tallitog'ora tepaligi miloddan oldingi I ming yillikda suv xudosiga bag'ishlab qurilgan inshoot ekanligi ma'lum bo'ldi. *Oaxsho/oxsho* qadimgi turkiycha *o'kuz* so'zi bilan bog'liq bo'lib, «suv» degan tushunchani anglatadi. Ko'p xudolilik davrida bu atama «suv xudosi» degan ma'noni orttirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqiladigan bo'lsa, «Suz xotin» qadimgi suv kulti bilan bog'liq marosim bo'lganligi anglashiladi. Islom dini tarqalgan davrda ham bu marosim unutilmagan. U zamonasiga moslashib, boshqa ko'rinishlarda bizning davrimizga qadar yetib kelgan.

Bug'doyni o'rib yanchishdan oldin bitta molni so'yib xirmonning boshida ehson berishadi. Agarda bug'doyni somondan ajratayotganda shamol bo'lmasa, yana bir marosim — «Yo Haydar» o'tkaziladi. Bug'doy yanchilganidan so'ng xirmondan bir g'alvir donni to'rvaga solib qishloq ulamosi yoki kambag'alga olib borishadi. Har bir xirmondan bir g'alvirdan bug'doy olinadi. Bu sadaqa «haqula» deb ataladi. Aholi xirmon yig'iladigan joy bilan bedazorlarni asragan, ularni muqaddas deb bilishgan. Shu bois xirmonjoyga tom qilishmagan, bedapoyada janoza o'qishmagan. Bunda hosildan baraka qochadi deb irim qilishgan.

Dehqonchilikda bo'lgani singari, chorvachilikning ham o'z marosimlari bor. Mart oyining oxirlarida cho'ponlar molni yozgi yaylovga chiqarayotgan paytda ko'chaning ikki chetiga xashakka isiriq qo'shgan holda olov yoqishadi. Bunda ko'ch ortilgan eshak va otdan tortib qo'y-echki va yirik shoxli qoramolgacha olov o'rtasidan o'tkaziladi. Odamlar, yonayotgan olov molni har qanday balo-qazodan





saqlaydi, deb biladilar. Bu an'ana barcha ko'chishlarda amalga oshiriladi. Umuman olganda, XX-asr o'rtalariga qadar tog' aholisi yiliga uch marta bir joydan boshqa joyga ko'chib turishgan.

Tog'liklar o'z chorvasini asrash uchun bir qator usullardan foydalanadilar. Chunonchi, bahorning boshlarida cho'ponlar mollarini tog' yonbag'irlariga, chukri, oq chayir va boshqa achchiq ta'mli o'simliklar – andiz, zirk, yovvoyi kavrak, yovvoyi bodom, yovvoyi ko'knor, kampirdevona, afg'ono't unib turgan joyga haydab borib, o'sha yerda o'tlatishadi. Achchiq ta'mli o'simliklar chorvaga davo bo'ladi. Negaki, bu o'simliklar qo'ylarning qurtini o'ldiradi. Agar mol kasal bo'lib qolsa uchqat daraxtining shox-shabbalarini bir doshqozonga solib qaynatishadi. Bu jarayon bir sutka davom etadi va uch marta almashtirib qaynatiladi. Oxirida silta-qaylasi qolgach chorvaga ichiriladi.

Ko'klamning ilk kunlarida odamlar o'z qo'ylarini Xomkondagi Oxurliota, Xo'jaulkandagi Xo'jaulkanota, Xatak va Panjob oralig'idagi Mixcha, Xo'janqondagi Xo'janqonota, Kampirtepadagi Xo'jaabdushota va Qizilolmadagi Cho'ptashar ziyoratgohlariga olib boradilar. An'anaga ko'ra, ziyoratgohga cho'pon tayog'ini tashlab, uch marta mollarini aylantiradilar. **So'ngra Alloh yo'lga bitta mol so'yib sadaqa chiqarishadi. Ba'zi momolar uchta xamirni pishirib, molimiz ko'paysin deb, bola-chaqasi bilan bo'lishib yeyishadi. Maydaroq qo'y kasal bo'lsa Xo'jaulkanga borib sadaqa berib o'qitishadi. Ziyoratgohlarning ahamiyati haqida quyidagi xalq naqli saqlanib qolgan: *Mol tilasang Xo'jaabdush, bosh tilasang Xo'janqon.***

Bundan 60-70-yillar oldin zamonaviy dori-darmonlar bo'lmagan vaqtda aholi chorvasi kana, burga, gang kabi hasharotlardan ko'p talofat ko'rar edi. Hasharotlardan saqlanish uchun turli chora-tadbirlarni o'ylab topishgan. Agar chorvani burga bilan kana bosib ketadigan bo'lsa, qo'ton bilan yaylovni almashtirishadi.

Agar chorvada taloq kasalligi tarqab, qirilib ketish xavfi tug'ilsa, u holda bo'rini og'zini bog'lab, qo'ylarning ichida yurg'iziladi. Bu odat *bo'ri oralatish* deyiladi. Shundan keyin kasallik ko'tariladi. Xomkonda esa qo'ylarda taloq kasalligi tarqalgan paytda butun otarni Cho'pon ota qabriga olib borilib, atrofidan uch marta aylantiriladi va kasallikni olib qolsin degan maqsadda cho'pon o'z tayog'ini shu yerda qoldirib ketadi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Agar ko'klam seryog'in kelib, shamol bilan yog'adigan bo'lsa, u holda suruvni shamolga teskari haydab «o'rish» yo'nalishi tanlanadi. «O'rish»—bu qo'ylarni oziqlantirish yo'nalishidir. Bunda poda qo'tondan 15 km uzoqlikda o'tlatiladi. Chorva bir kunda borish-kelishi bilan o'rtacha 30 km yurib, qo'toniga qaytadi. Qishki mavsumda chorva qo'tondan 3-5 km masofada o'tlaydi. Negaki, qish kunlari qisqa bo'lib, qor, yomg'ir, ayniqsa tumanli kunlarda adashib qolishi mumkinligi hisobga olinadi.

Qurg'oqchilik, bo'rilar hujumi, qaroqchilar, sel, hayvonlar orasidagi yuqumli kasalliklar chorvadorlar uchun haqiqiy ofat hisoblanadi. O'z chorvasini himoya qilish uchun cho'ponlar miltiq, pichoq hamda qamchi olib yuradilar. Cho'ponlarning yonida maxsus o'rgatilgan bo'ribosar itlari bo'ladi. Agar itlari bo'rini bosa olsa, qo'y so'yib quyrug'ini xomlay unga beradilar. Negaki, bo'ri bilan olishgan paytda itning tishi, tirnoqlari bo'shashib qoladi. Shuning uchun itga issiqlik va jismoniy qobiliyatini yo'qotmasligi, oldingi holatini tiklashi uchun shu tadbir o'tkaziladi.

Cho'ponlarning yordamchilari—cho'liqlardir. 3-4 ta cho'liqning boshlig'i «arkar» deyiladi. Arkar bo'lish uchun 5-10-yil kerak bo'ladi. U tog'ning toponimini bilishi, qo'yni qanday boqish, bo'ri qayerdan kelishi va shu kabi bilimlarni mustahkam egallagan bo'lishi lozim. Arkarlikka o'tish uchun maxsus sinov o'tkaziladi. Unga ko'ra, arpa yoki bug'doy unidan ikkita ko'mma pishiriladi. Ularning birini cho'liqqa, ikkinchisini olg'ir itga bir vaqtning o'zida beriladi. Agar cho'liq itdan oldin ko'mmani yesa, uni arkarlikka tayinlashadi. Agar yeyolmasa yana oldingidek cho'liqligicha qolaveradi.

Cho'ponning tayog'i ulug' sanaladi. Cho'pon uni o'z o'g'liga yoki eng ishonchli shogirdiga topshiradi. Cho'pon tayog'i toq sonda 13 yoki 15 tutamdan iborat bo'lib, 1,3-1,5 metrga teng bo'lgan. Uni hatlab o'tish ta'qiqlanadi. Cho'ponning tayog'i irg'ay, zarang, tug'dona daraxtlaridan qilinadi. Bunda, cho'pon ham shu daraxtlar singari qattiq, mustahkam, chayir bo'lishi maqsad qilinadi. *Cho'ponning tayog'i, kelinning oyog'i* degan naql ham bor.

Otardagi qo'ylar o'z-o'zidan o'laversa, «chiroq yoqish» amali o'tkaziladi. Bunday hollarda cho'pon biron-bir matoni yog'ochga boylab, moyga botiradi va yonayotgan matoni dastlab sarkalarning, so'ngra qo'ylarning tagidan o'tkazib oladi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Bunda olov har qanday yovuzlikni oldini oladi degan ishonch bor bo‘lib, islomgacha bo‘lgan diniy e‘tiqodlarda muqaddas deb hisoblangan.

Tog‘ qishloqlaridagi sayislar o‘z otlarini yomon ko‘zdan saqlash uchun turli irim-sirimlarni o‘ylab topishgan. Axborotchilar bergan ma‘lumotga ko‘ra, agar otga kinna kirsa, suqlansa u bezovtalanib, kasal bo‘lib qoladi. Shunday holatda qurquray degan qushning inini olib kelib tutatishadi va otga islatishadi. Natijada ot birpasda tinchlanib qoladi.


Qurquray (kurkurak)—beozor, ovoz chiqaruvchi, pati quyoning juniday mayin qush. Ko‘hitang, Boysun, Hisor va boshqa tog‘larning eng baland cho‘qqilarida, odam oyog‘i yetmaydigan joylarda in quradi. Uni faqat mohir qoyachilar va ovchilargina olishlari mumkin.

Qurquray ini topilmagan taqdirda dami o‘tkir xalfalar otning jilovi, yugani, qamchisi, ola ipi, xalfaning pichog‘i yoki tasbehi bilan silaydilar. Xalq tushunchasiga ko‘ra, otning devi kuchli bo‘lib, dami kuchsiz mullaga ziyon yetkazib, og‘zini qiyshaytirib qo‘yishi mumkin. Shu bois, otni faqat maxsus tayyorgarlik ko‘rgan xalfalar o‘qishadi. Xalfa deganda, ko‘z tekkanni o‘qiydigan, kinna va suqni silaydigan kishilar tushuniladi.

Chorvadorlarning o‘z homiylari bor. Zangiota—qoramollar piri, Cho‘ponota—mayda mollarning piri, Qambarota—ot va chopag‘onlar piri, Vosil Qora—tuyakashlar piri sanaladi. Pilla qurti boqadiganlar esa, hazrati Ayyub alayhissalomni o‘zlariga pir deb bilishadi.

Tog‘ qishloqlarida yashovchi hunarmand-ustalarning o‘ziga xos udumlari bor. Hunarmandlar halol kun kechirishlari lozim edi. O‘z navbatida hunarmanddan biror buyum sotib olinsa, ustani rozi qilish shart hisoblanadi. Buyumni sotib olganidan so‘ng sotib oluvchilar ustalarga qarab *rozi bo‘ling* deyilar.

Hunarmandchilikning har bir tarmog‘i o‘z piriga ega bo‘lgan. Tegirmonchilar hazrati Jabroilni, o‘rmakchilar bilan bo‘zchilar Shishnovulni (hazrati Shis alayhissalom), temirchilar hazrati Dovudni, tikuvchilar hazrati Idris alayhissalomni, quruvchilar hazrati Ibrohim alayhissalomni, qassoblar Jomard boboni, kashtachilar va bezakchilar Bahouddin Naqshbandiyini, juvozchilar Xoja Ro‘shnoyini, kulollar hazrati Mirkulol otani (Farg‘ona





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

vodiysida Mehri Kulol) o'zlariga pir deb bilishadi. Hunarmandlar har yili Alloh yo'lida biron-bir jonliq so'yib Qur'on o'qitishadi.

Tandirni buzishdan oldin, albatta, yangi tandir olib kelinadi. Shundagina eski tandirni sindirish mumkin bo'lgan. Agar shunday qilinmasa oilaga zarar keladi, degan fikr bor. Tandirni buzish davlatni buzish bilan barobar deb hisoblanadi. Xalq tushunchasiga ko'ra, tandirning ichida kulolning ruhi bo'lar ekan. Agar tandiri buzilsa, u chumoli shakliga kirib, *oh meni yalang'och haydadi* deb, eshikning bo'sag'asi orasiga kirib yig'lar ekan. Shu sabab, oldin yangi tandirni olib kelib, uch kundan keyin o'rnatishgan. Kulol o'sha tandirning ichiga kira olar ekan.

Hududdagi ovchilar o'z marosimlariga ega bo'lishgan. Ovchilar bu yerda «mergan» deb ataladi. Merganlikka kirishishdan oldin Zarabog' qishlog'idagi eng bilimli ulamodan risola olishlari kerak bo'ladi. Shundagina uning otgan hayvoni halol sanaladi. Ov oxirida otilgan o'lja mergan va unga yordam bergan kishilari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Ovchilarning piri sifatida Pahlavon Ahmad Zamshiy e'zozlanadi. Afsonaga ko'ra, u kishi o'qqa «zam» o'qib, keyin hayvonlarni otar, o'qilgan «zam» buyruqqa binoan albatta nishonga tegar ekan.

Qishloqlarda merganlar o'rtasida muayyan jonivorlarni ovlash bo'yicha farqlar uchraydi. Jumladan, Xatak guruhiga kiruvchi qishloqlar aholisi jayrani makruh deb bilib unga ov hayvoni sifatida qarashmagan. Sherobodaryoning boshqa qishloqlarida esa, jayra ovlangan. To'ng'iz islom dinida harom hisoblanganligi uchun otishmagan. Lekin XX-asr o'rtalaridan boshlab merganlar bemalol to'ng'iz ovlashni boshlashgan.

Ovchilarga mingta hayvonni otishga ruxsat beriladi. Odatdagi vaqtda ovlangan hayvon yonboshiga yiqilib tushsa, minginchi bo'lib otilgan hayvonning shoxi yerga, tuyoqlari esa, to'rt oyoqlab tik turadi. Bu «o'mma turish» deyiladi. Xuddi shunday vaziyatga xataklik Abdumurod mergan Otaniyozov va kampirtepalik Xudoynazar mergan duch kelishgan. Bunday holat faqat bir miltiqdan otilgan minginchi hayvon bo'lsagina sodir bo'lar ekan. Agar ovchi o'mma holiga duch kelsa, o'sha zahoti ov kiyimlarini otilgan hayvonning oldiga tashlab ketishi lozim bo'ladi. Hayvonni ham o'sha yerning o'zida qoldirib ketadi. Agar shunday qilmay, ovni yana davom ettiradigan bo'lsa, ziyon ko'radi deb hisoblanadi.





Xulosa qiladigan bo'lsak, Sherobodaryo qishloqlari aholisi xo'jalikning turli sohalari bilan shug'ullanar ekan, albatta muayyan marosimlarni bajarishgan. Marosimlarni o'tkazar ekan, odamlar yil yaxshi kelishini, hosil ko'p bo'lishini, ofat va kulfatlardan saqlanishini, ishiga baraka kelishidan umidvor bo'lishgan. Bu odat va an'analar ma'lum bir o'zgarishlar bilan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmanov I.R. Boysun o'yinlari // O'zbekiston san'atshunosligi. Ilmiy to'plam. – Toshkent, 2003. –106-112 b.
2. Abduraxmanov I.R. Boysun tamoshaviy o'yinlari va marosimlari / Boysun tarixi va an'analari. –Toshkent, 2005. –114-118 b.
3. **Anorov J. Tangidara qaldirg'ochi. –Toshkent, 1998. – 112 b.**
4. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007.
5. Ahmedova G. Milliy ma'naviyatimizda baxshichilik maktablarining o'рни // «O'tmishga nazar» jurnali, 2020 yil, 2 – maxsus son. –58-60 b.
6. Ahmedova G. Surxondaryo baxshilari //«O'tmishga nazar» jurnali, 2020 yil, 4-maxsus son. –54-58 b.
7. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. –Toshkent: Fan, 1968. – 488 b.
8. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Изд. 2, Москва-Ленинград, том ИИ, 1951. – 334 с.
9. Tursunov S., Tursunov A., Tog'ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi-nashr, 2014. –356 b.
10. Tursunov S.N., Pardayev T., Begimqulov O. O'zbek milliy kurashi: tarixi va an'analari. – Termiz: Surxon-Nashr, 2015. – 204 b.
11. Tursunov S., Pardayev T., Tursunova N., Murtazoyev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. –Toshkent, 2015. –256 b.

IV. Dissertasiya va avtoreferatlar

12. Ahmedova G.O'. O'zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an'alarining etnomadaniy jarayonlarga ta'siri (XIX-asrning ikkinchi yarmi- XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. –Termiz, 2022. – 151 b.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

13. Umarov I.I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. –Termiz, 2022. -174 b

Dala yozuvlari.

¹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Xomkon qishlog‘i, 2021 yil.

¹ Dala yozuvlari, Boysun shahri, 2022 yil.

¹ Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari... –B. 133-134.

¹ Qurbonov A. Shimoliy Surxon vohasi aholisi an‘anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2009. –B. 138.

¹ Dala yozuvlari, Muzrabot tumani, Yangier qishlog‘i, 2014 yil.





C# DASTURLASH TILIDA KOLLEKSIYALARGA MASSIV SIFATIDA MUROJAAT QILISH: INDEKSATORLAR

Zikirova Fotima Murtazoyevna,

Buxoro davlat universiteti 1-2ATT-22 guruh talabasi

fotimazikirova4@gmail.com


***Annotatsiya.** Ushbu maqola C# dasturlash tilida indeksatorlar bilan ishlashni o'rganish va qo'llash haqida batafsil ma'lumot beradi. Indeksatorlar orqali kolleksiyalarga massivlar kabi murojaat qilish imkoniyati yaratiladi. Maqola indeksatorlarni aniqlash va ulardan foydalanish jarayonini misollar yordamida tushuntiradi. Shuningdek, string turidagi indekslar yordamida massivga murojaat qilish imkonini beruvchi **KeyedArray** sinfi yaratilib, uning ishlash mantiqi va amaliyotda qo'llanilishi batafsil yoritilgan. Ushbu usullar C# dasturlashida kolleksiyalarni boshqarishning qulay va samarali usullarini yaratishga yordam beradi.*

***Kalit so'zlar:** C# dasturlash tili, indeksatorlar, kolleksiyalar, massivga murojaat qilish, string indekslar, **KeyedArray** sinfi, **Find** metodi, **FindEmpty** metodi, ma'lumotlar boshqaruvi, obyektlar kolleksiyasi, indeksatorlarni ortiqcha yuklash, konstruktorlar.*

ОБРАЩЕНИЕ К КОЛЛЕКЦИЯМ КАК К МАССИВАМ В ЯЗЫКЕ ПРОГРАММИРОВАНИЯ C#: ИНДЕКСАТОРЫ

***Аннотация.** В данной статье подробно рассматривается работа с индексаторами в языке программирования C#. Индексаторы предоставляют возможность обращаться к коллекциям так же, как к массивам. Статья объясняет процесс определения и использования индексаторов с помощью примеров. Также создается класс **KeyedArray**, который позволяет обращаться к массиву с использованием строковых индексов, подробно освещается его логика работы и применение на практике. Эти методы способствуют созданию удобных и эффективных способов управления коллекциями в программировании на C#.*

***Ключевые слова:** язык программирования C#, индексаторы, коллекции, доступ к массиву, строковые индексы, класс **KeyedArray**, метод **Find**, метод **FindEmpty**, управление данными, коллекция объектов, перегрузка индексаторов, конструкторы.*



ACCESSING COLLECTIONS AS ARRAYS IN C# PROGRAMMING LANGUAGE: INDEXERS

Annotation. This article provides detailed information about working with indexers in the C# programming language. Indexers allow collections to be accessed similarly to arrays. The article explains the process of defining and using indexers with examples. Additionally, a `KeyedArray` class is created, which enables accessing an array using string indices, with its logic and practical application described in detail. These methods help create convenient and efficient ways to manage collections in C# programming.

Keywords: C# programming language, indexers, collections, array access, string indices, `KeyedArray` class, `Find` method, `FindEmpty` method, data management, object collections, overloading indexers, constructors.

Kirish. Massiv elementlariga kirish juda oddiy va tushunarlidir: `container[n]` buyrug'i container massivining n-elementiga kirishni ta'minlaydi. Indeksar yordamida boshqa turdagi kolleksiyalarga ham murojaat qilish mumkin.

C# tili indekslash operatsiyasining o'z dasturini yozishga imkon beradi. Dastlab bunday xususiyatga ega bo'lmagan kolleksiyalarga indeks orqali murojaat qilish imkoniyatini berishingiz mumkin. Bundan tashqari, siz indeks sifatida nafaqat int turini, balki string kabi boshqa turlarni ham indekslashingiz mumkin

Indeksator formati

Indeksator odatiy xususiyatga juda o'xshash ko'rinadi, bundan tashqari, o'zgaruvchi nomi o'rniga `this` kalit so'z va `[]` indeks operatori paydo bo'ladi:

```
class MyArray
{
    public string this[int index]
    {
        get
        {
            return array[index];
        }
        set
        {
```



```
array[index] = value;
}
}
}
```

Sahna ortida `s=myArray [i]`; ifodasi `i` indeksi qiymatini unga o'tkazish orqali `get` kirish metodini chaqiradi. `myArray[i]="string"`; ifodasi `i` indeksi va "string" qatori qiymat sifatida uzatiladigan set kirish metodini chaqirishga olib keladi.

Indeksator bilan ishlash dasturi

Indeksalar `int` turi bilan cheklanmaydi. Masalan, siz uy kolleksiyasini indeksatsiya qilish uchun ularning egalarining ismlari yoki manzillaridan foydalanishingiz mumkin. Bundan tashqari, indeksator xususiyati bir xil to'plamning turli elementlarini indekslash uchun bir nechta indeks turlari bilan ortiqcha yuklanishi mumkin.

Quyidagi *Indexer* dasturi oddiy massivga o'xshab ko'rinadigan va ishlaydigan *KeyedArray* virtual massiv sinfini yaratadi, bundan tashqari string tipidagi qiymat indeks sifatida qo'llaniladi.

Kerakli sinf sozlamalarini bajarish

Ushbu misol maxsus sinfga asoslangan, ya'ni buning uchun siz sinf ramkasini yaratishingiz kerak.

```
using System;
```

```
namespace Indexer
```

```
{
public class KeyedArray
{
```

```
private string[] _keys;
private object[] _arrayElements;
```

```
public KeyedArray(int nSize)
```

```
{
```





```
_keys = new string[nSize] ;  
_arrayElements = new object[nSize] ;  
}  
}  
}
```

KeyedArray klassi ikkita oddiy qatorni o'z ichiga oladi. *_arrayElements* massivi haqiqiy *KeyedArray* ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. *_keys* massivida saqlanadigan satrlar obyektlar massivining identifikatorlari sifatida ishlaydi, *_keys*ning *i*-elementi *_arrayElements*ning *i*-yozuviga mos keladi. Bu dastur *string* tipidagi indekslar yordamida *KeyedArray* klasini indekslash imkonini beradi.

Butun sonlar bo'lmagan indekslar kalitlar deb ataladi.


`public KeyArray(int size)` qatori konstruktor deb ataladigan maxsus funktsiyaning boshlanishi hisoblanadi. Konstruktorlarni sinf misollarini yaratish bo'yicha ko'rsatmalar sifatida tasavvur qiling. Endi bu haqda tashvishlanishingiz shart emas, lekin aslida konstruktor *_keys* va *_arrayElements* uchun qiymatlarni belgilaydi.

Indeksatorlar bilan ishlash

Endi kodda ishlaydigan indeksatorni aniqlash kerak. Bu quyidagi qismda ko'rsatilgan. E'tibor bering, `public object this[string key]` indeksatori ikkita funktsiyadan foydalanishni talab qiladi, `Find()` va `Find Empty()`.

```
private int Find(string targetKey){  
    for(int i=0; i<keys.Length; i++)  
    {  
        if(String.Compare(keys[i], targetKey)==0)  
        {  
            return i;  
        }  
    }  
    return -1;  
}
```


```
private int FindEmpty()
```





```
{  
    for(int i=0; i<keys.Length; i++)  
    {  
        if(_keys[i]==null)  
        {  
            return i;  
        }  
    }  
    throw new Exception("Massiv to'ldirilgan");  
}
```

```
public object this[string key]  
{  
    set  
    {  
        int index=Find(key);  
        if(index<0)  
        {  
            index=FindEmpty();  
            _keys[index] = key;  
        }  
        _arrayElements[index] = value;  
    }  
    get  
    {  
        int index Find(key);  
        if(index < 0)  
        {  
            return null;  
        }  
        return _arrayElements[index];  
    }  
}
```





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Set[string] indeksatori Find() metodini qo'llagan holda massivda berilgan indeks mavjudligini tekshirishdan boshlanadi. Agar u indeksni qaytarsa, set[] yangi ma'lumotlar obyektini tegishli *_arrayElements* elementida saqlaydi. Agar Find() kalitni topa olmasa, set[] bo'sh elementni qaytarish uchun FindEmpty() ni chaqiradi, bu yerda uzatilgan obyekt saqlanadi.

Get[] metodi shunga o'xshash mantiq yordamida indeks bilan ishlaydi. Birinchidan, Find() metodi yordamida ma'lum bir kalitni qidiradi. Agar Find() manfiy bo'lmagan indeksni qaytarsa, get[] so'ralgan ma'lumotlarni saqlaydigan tegishli *_arrayElements* a'zosini qaytaradi. Agar Find() -1 ni qaytarsa, get[] metodi *null* qiymatini qaytaradi, bu ro'yxatda berilgan kalit yo'qligini ko'rsatadi.

Find() metodi *_ keys* massivining barcha elementlari bo'ylab aylanib, string turidagi targetKey qiymati bilan bir xil qiymatga ega elementni qidiradi. Find() metodi topilgan elementning indeksini qaytaradi(yoki element topilmasa -1 qiymati). FindEmpty() metodi bog'langan kalit elementga ega bo'lmagan birinchi element indeksini qaytaradi.


Yangi sinfni sinovdan o'tkazish

Indexer dasturining bir qismi bo'lgan, lekin sinfning bir qismi bo'lmagan Main() funksiyasi KeyedArray sinfining ahamiyatsiz qo'llanilishini ko'rsatadi:

```
public class Program
{
    public static void Main(string[] args)
    {
        KeyedArray family = new KeyedArray(100);

        family ["Bart"]=8;
        family ["Lisa"]=10;
        family ["Maggie"]=2;

        Console.WriteLine("Lisani qidiramiz:");
        int age=(int)family["Lisa"];
    }
}
```





```
Console.WriteLine("Lisaning yoshi - {10}", age);
```

```
Console.WriteLine("Dasturni tugatish uchun <Enter> ni bosing!");
```

```
Console.ReadLine();
```

```
}  
}
```

Birinchiidan, dastur 100 uzunlikdagi (ya'ni yuzta erkin element bilan) `KeyedArray` tipidagi family obyektini yaratadi. Bundan tashqari, ushbu obyekt bolalarning yoshini indeks sifatida ismlardan foydalangan holda saqlaydi. Va nihoyat, dastur `family["Lisa"]` iborasi yordamida Lisaning yoshini oladi va uni ekranga chiqaradi.


E'tibor berib, dastur `family[]` dan qaytarilgan qiymat uchun turni o'zgartirishni amalga oshirishi kerak, chunki `KeyedArray` har qanday turdagi obyektlarni saqlashi mumkin bo'lgan tarzda yozilgan. Agar indeksator faqat `int` tipidagi qiymatlar bilan ishlashi uchun yozilgan bo'lsa yoki `KeyedArray` umumlashtirilgan sinf bo'lsa, bunday turdagi transformatsiyasiz amalga oshirish mumkin. Dastur natijasi quyidagicha:

Lisani qidiramiz:

Lisaning Yoshi – 10

Dasturni tugatish uchun <Enter> ni bosing!


Xulosa: Maqolada indeksatorlar orqali kolleksiyalarga oson va intuitiv tarzda murojaat qilish imkoniyati yaratish usullari ko'rib chiqildi. Indeksatorlar yordamida massiv elementlariga xos bo'lgan `container[n]` sintaksisi boshqa turdagi kolleksiyalar uchun ham qo'llanishi mumkinligi aniqlandi. Maqolada ishlab chiqilgan **KeyedArray** sinfi string turidagi indekslar orqali ma'lumotlarga kirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv nafaqat `int` turidagi indekslar, balki boshqa turlardan ham foydalanishga yo'l ochadi. Misollar asosida indeksatorlar bilan ishlashda kerakli funksiyalar, xususan `Find` va `FindEmpty` metodlari taqdim etildi. Ushbu yondashuv katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarishda qulaylik yaratadi va dasturchilarga samaradorlikni oshirish imkonini beradi.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

1. Albahari, J., & Albahari, B. (2022). C# 11 in a Nutshell: The Definitive Reference (11th ed.). O'Reilly Media.
2. Troelsen, A., & Japikse, P. (2021). Pro C# 9 with .NET 5: Foundational Principles and Practices in Programming (10th ed.). Apress.
3. Microsoft. (n.d.). Indexers (C# Programming Guide). Microsoft Learn. Retrieved January 23, 2025, from <https://learn.microsoft.com/en-us/dotnet/csharp/programming-guide/indexers/>
4. Balena, F. (2023). Using Indexers in C#: A Practical Guide. CodeProject. Retrieved January 23, 2025, from <https://www.codeproject.com/Articles/5293917/Using-Indexers-in-Csharp>
5. GeekforGeeks. (2023). Indexers in C#. Retrieved January 23, 2025, from <https://www.geeksforgeeks.org/indexers-in-c-sharp/>
6. Smith, J. (2024). Advanced Data Structures in C#: Indexers and Collections. International Journal of Computer Science and Applications, 36(2), 145–156.



THE NECESSITY OF ORGANIZING THE LEARNING PROCESS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGY.

H.B.Ismatova

Teacher of Bukhara State University.

Annotation. Our society is developing rapidly, its economic and political position is increasing day by day. However, in the social sphere, and especially in education, there is a noticeable slowdown and lagging behind general development. One of the ways out of this unpleasant situation is the technologization of the educational process on the basis of adopted state standards.

It is necessary to study the pedagogical technologies that are successfully used in enlightened and developed countries and create pedagogical technologies based on the national pedagogical traditions of our people and the current state of the education sector.

Key words: student, creative thinking, attitude, education, training, non-traditional issue, reform, intellectual potential, development, perfection, demand.

In the literature on pedagogy created in recent decades,

Concepts such as "Pedagogical technology", "New pedagogical technology", "Advanced pedagogical technology", "Progressive pedagogical technology" are often found, but their definition in the Uzbek language has not been developed.

Pedagogical scientists and practitioners of our republic are striving to create educational technologies that are scientifically based and adapted to the socio-pedagogical conditions of Uzbekistan and to apply them in educational practice.

Here, the question may arise why there is a need to create a national theoretical basis for pedagogical technologies and implement them in practice today. There are so many pedagogical methods that have trained educated personnel and highly qualified scientists in our society, can't we change their outdated, undemanding and ideologized places, give them a national wedding and use them? - There are also considerations. The majority of Uzbekistan's pedagogical community today is following this path. This path was invented out of desperation and may serve for a short time. This path cannot serve a

society that has gained independence and is striving for a great future for a long time. Because:

Firstly, the need to use the most advanced pedagogical measures to accelerate and increase the efficiency of education in order for our society, which for certain reasons has lagged behind the development of the world community, to take its place among the developed countries;

Secondly, the traditional education system, which is based on written and oral words, is characterized as "Information Education", and the teacher's activity has become not only an organizer of the educational process, but also a source of authoritative knowledge;

Thirdly, as a result of the rapid development of scientific and technological progress, information is growing rapidly and the time to convey it to young people is limited;

Fourthly, at the current stage of its development, human society is moving from thinking based on theoretical and empirical knowledge to technical thinking based on a clear conclusion, which has an increasingly useful result; Fifth, the need to perfectly prepare young people for life requires the use of the principle of an integrated approach to objective existence, which is considered the most advanced method of providing them with knowledge!

Pedagogical technology is an educational measure that meets all the requirements of the five causal conditions listed above.

The development and implementation of educational technologies involves conducting special research as a scientific problem.

It should be noted that educational technologies should be noted not only as a research object of pedagogical science, as a method of teaching specific subjects, but also as a new approach to teaching social sciences.

Technology is understood as a process that leads to a qualitative change in the subject as a result of the influence exerted by the subject on the object. Technology always implies the performance of purposeful actions directed at the object in a certain sequence, using the necessary means and conditions.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

If we transfer these concepts to the educational process, it can be described as a social phenomenon that intensively forms in students the social qualities necessary for society and predetermined in advance as a result of the systematic influence exerted by the teacher on students under certain conditions using educational tools. According to the theory of definitions, such a social phenomenon can be called pedagogical technology. Since pedagogical technology was a social necessity, it first emerged in the 70s in the USSR under the behavioral current of philosophy and quickly spread to other developed countries.

In the early 90s of the 20th century, after socialism collapsed and its member states became independent one after another, a wide path opened up for foreign countries that had developed in all respects, including Uzbekistan.


Having gained independence, scientists from Uzbekistan began to establish economic, social, political, and scientific-educational ties with foreign countries. As a result, advanced and effective technologies began to enter our country. Along with these, the concepts of progressive pedagogical technology in the world also entered.

According to V.P. Bespalko, who was one of the first in the CIS countries to describe the need to introduce pedagogical technology into the educational process, "PT is a project of the process of forming the student's personality, which can guarantee pedagogical success, regardless of the teacher's skills."

Russian scientist V.M. Monakhov gives a brief definition: "PT is a system of systematic actions that lead to previously planned results and are subject to execution," and draws attention to its main features. "PT technologizes the educational process, increases its reproducibility and stability of the pedagogical process, freeing it from the subjective characteristics of the performer of this process," he says.

According to M.V. Klarin, PT is the design of the educational process with a technological approach to the educational process, based on predetermined goal indicators.

According to V.P. Bespalko's Uzbek students Nurali Saidakhmedov and Abdurakhmon Ochilov, PT is a process of intensive formation of predetermined personal qualities in students by a teacher in certain conditions using teaching aids and, as a result of this activity, Uzbek pedagogical scientist B.L. Farberman defines pedagogical





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

technology as follows: PT is a new approach to the educational process, an expression of socio-engineering consciousness in pedagogy. It is a social phenomenon associated with standardizing the pedagogical process based on the capabilities of technology and the technical thinking of man, and developing its optimal design.


To compare these definitions with definitions given far abroad, we cite the definition given by the Japanese pedagogical scientist T. Sakomoto. “PT,” says Sakomoto, “is the introduction of a systematic and comprehensive way of thinking into pedagogy, in other words, bringing the pedagogical process into a certain whole.”

According to the definition of UNESCO, one of the authoritative agencies of the United Nations, “PT is the use of a systematic approach in the design and implementation of the entire educational process, considering technical and human resources as interconnected in the process of providing and acquiring knowledge.”

If we analyze the given definitions from a scientific and philosophical point of view, we will see that although the definitions given far abroad and the definitions given by scientists from the CIS countries are close to each other, they also differ significantly. In particular, the Sakomoto and UNESCO definitions emphasize the principle of an integrated approach. Although the definitions given by scientists from the CIS to PT mention a systematic approach, we see that when designing the educational process, it is completely forgotten and the laws and rules of the principle of a systematic approach are not followed at all.


In fact, for someone who is well versed in the principle of a systematic approach to objective existence, the concept that “PT is the bringing of the educational process into a certain system” is sufficient, as Sakomoto said. Through this concept, one can understand all the other features of PT, namely, goal-orientedness, the fact that it consists of several interconnected parts, and others. Because all these features, according to systems theory, are inseparable qualities of things and phenomena that are called systems.

The main concept of pedagogical technology is, of course, an approach to the educational process as a system. In this case, all things and phenomena participating in education are functionally interconnected and form a single whole, that is, a system of pedagogical processes. The gradual implementation of the system of pedagogical processes over a certain period of time is called pedagogical technology.



List of used literature:

1. Bakhtiyorovna I. K. Methodological Conditions for the Organization and Management of Working with Difficult and Idle Students //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 115-119.
2. Bakhtiyorovna I. H. STUDY OF THE FORMATION OF CRIME MOTIVATION IN ADOLESCENTS AS A PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL RESEARCH //ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-8
3. Ismatova H. B. TARBIYASI QIYIN VA BOSH OZLASHTIRUVCHI OQUVCHILAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISHNING METODIK IMKONIYATLARI //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1017-1023.
4. Bakhtiyorovna I. K. Pedagogical Mechanisms of Organization of Work with Difficult Students. – 2022.
5. Азимова Н. Э., Насимова З. И. Маънавий-маърифий ишлар жараёнида бўлажак касб таълими ўқитувчисини тарбиялаш методикаси //psixologiya Учредители: Бухарский государственный университет. – №. 3. – С. 129-134.
6. Azimova N. E. Problems of development of new pedagogical technologies of training of teachers of professional education and their introduction into the educational and educational process //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-3.
7. Azimova N. E. Formation of National and Ideological Education of Students is an Integral Part of the Learning Process. – 2021.
8. Azimova N. E. A financially independent higher education institution is the foundation of our future //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 130-134.
9. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
10. Азимова Н. Э. Технология духовно-нравственного воспитания преподавателя профессионального образования в процессе обучения //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – С. 117-118.



KAMERALIZM VA DAVLAT IQTISODIYOTI

Do'stmuhammedova Nozima

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

Jo'raqulova Hilola

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar fakulteti,
Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash masalalari tahlil qilinadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion texnologiyalarni joriy qilishning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada iqtisodiy siyosatning tadbirkorlikka ta'sirini baholash, xalqaro tajribalar va zamonaviy metodlardan foydalanish taklif etiladi.

Kalit so'zlar. Iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, innovatsiyalar, iqtisodiy siyosat, investitsiyalar, xalqaro tajriba.

Abstract

This article analyzes the issues of ensuring economic growth and improving the business environment in Uzbekistan. The importance of stabilizing the economy, creating new jobs, and introducing innovative technologies through the development of entrepreneurship is highlighted. The article proposes to assess the impact of economic policy on entrepreneurship, using international experience and modern methods.

Keywords. Economic growth, improving the business environment, innovation, economic policy, investments, international experience.

KIRISH

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash dolzarb masalalardan biridir. Tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va jamiyatning farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada iqtisodiy o'sish va tadbirkorlikni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlik, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. So'nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar natijasida iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha muhim yutuqlarga erishildi. Mazkur maqola ushbu jarayonlarni chuqurroq o'rganish va ularning iqtisodiy natijalarini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadbirkorlik va iqtisodiy o'sish masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Schumpeter (1934)ning innovatsiyalar va tadbirkorlik nazariyasi, Porter (1990)ning raqobatbardoshlik klasterlari haqidagi tadqiqotlari ushbu sohada asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. O'zbekiston kontekstida esa iqtisodchi olimlar tadbirkorlikning huquqiy va iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga e'tibor qaratishgan. Biroq, tadbirkorlik muhitini yaxshilash borasidagi ayrim qiyinchiliklar va ularni hal qilishda zamonaviy yondashuvlarning yetishmasligi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik muhitini yaxshilash masalalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Masalan, Barro va Sala-i-Martin (1995) iqtisodiy o'sishning nazariy asoslarini ishlab chiqqan bo'lsa, Porter (1990) raqobatbardoshlik va innovatsiyalarni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi. O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari haqida mahalliy va xorijiy olimlar, jumladan, Abdullaev (2020) va Karimov (2021) asarlarida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotda iqtisodiy o'sish va tadbirkorlik muhitini tahlil qilish uchun quyidagi usullar qo'llanildi:

Statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;


Sifatli va miqdoriy tadqiqot usullarini qo'llash;

Ekspert intervyulari va so'rovnomalar yordamida ma'lumotlar to'plash.

Mazkur maqolada iqtisodiy tahlil va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. O'zbekistondagi tadbirkorlik muhitining holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan va xalqaro tajriba bilan solishtirilgan. Shuningdek, tadbirkorlikka to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash uchun so'rovnomalar va ekspert intervyulari o'tkazildi.

NATIJALAR

O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar ijobiy natijalar bermoqda.






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Tadbirkorlikka to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida yuqori soliqlar, moliyaviy resurslardan foydalanish cheklovlari va ruxsat berish tartib-taomillarining murakkabligi aniqlangan.

Innovatsion texnologiyalarni joriy qilish va infratuzilmani rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni tezlashtirish imkoniyatlari mavjud.



1-rasm. O'zbekistonning 2018-2023 yillar oralig'ida iqtisodiy o'sish sur'atlarini aks ettiruvchi grafik.

Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida 5-6% o‘shish sur‘atlari kuzatilmoqda.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash uchun soliq yuki kamaytirildi va yangi qonunchilik bazasi joriy etildi.

Investitsion muhitni yaxshilash uchun xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Biroq, infratuzilma va kadrlar tayyorlash sohalarida hali ham muammolar mavjud.





1-jadval. Tadbirkorlik rivoji va iqtisodiy o‘shning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha 2022-yil va 2023-yildagi natijalar hamda ulardagi o‘sh foizi aks ettirilgan jadval

Ko‘rsatkichlar	2022-yilgi qiymatlari	2023-yilgi qiymatlari	O‘shish (%)
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	54%	56%	3.7%
Xorijiy investitsiyalar hajmi	7.5 mlrd AQSh dollari	8 mlrd AQSh dollari	6.7%
Yangi ish o‘rinlari yaratilishi	470 ming	500 mingdan ortiq	6.4%
Tadbirkorlik subyektlari soni	450 ming	480 ming	6.7%
Innovatsion startaplar soni	1,200	1,500	25%

Jadvalda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sh va tadbirkorlik muhitining rivojlanishi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar aks ettirilgan. Quyidagi ma'lumotlar taqdim etilgan:

1. Ko‘rsatkichlar:

- Bu ustunda iqtisodiy rivojlanishga ta'sir ko‘rsatuvchi asosiy indikatorlar keltirilgan: kichik biznesning YaIMdagi ulushi, xorijiy investitsiyalar hajmi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, tadbirkorlik subyektlari soni va innovatsion startaplar soni.

2. 2022-yilgi qiymatlari:

- Ushbu ustunda har bir ko‘rsatkichning 2022-yildagi qiymati ko‘rsatilgan. Masalan, kichik biznesning YaIMdagi ulushi 54%, xorijiy investitsiyalar hajmi 7,5 milliard AQSh dollariga teng bo‘lgan.

3. 2023-yilgi qiymatlari:

- Bu ustunda 2023-yildagi natijalar keltirilgan. Ko‘rsatkichlarning barchasi o‘shish ko‘rsatgan: kichik biznesning YaIMdagi ulushi 56%ga yetgan, xorijiy investitsiyalar hajmi esa 8 milliard AQSh dollariga ko‘tarilgan.



4. O‘sish (%):

- Ushbu ustun har bir ko‘rsatkichning 2022-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan o‘sish foizini ko‘rsatadi. Masalan, innovatsion startaplar soni 25%ga oshgan, yangi ish o‘rinlari esa 6,4%ga ko‘paygan.

Bu jadval orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi va iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasini raqamli ko‘rinishda baholash mumkin. U iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha tahlilchilar, siyosatchilar va tadbirkorlar uchun ma'lumotli manba sifatida xizmat qiladi.

XULOSA

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash uchun tadbirkorlik muhitini yaxshilash ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Mavjud muammolarni hal qilish uchun davlat siyosati va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va xalqaro tajribalardan foydalanish zarur. Tadbirkorlikni rag‘batlantirish iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar salmoqli natijalar bermoqda. Biroq, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun quyidagi choralarni amalga oshirish zarur:

Innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

Xususiy sektorni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish;

Ta‘lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press.
2. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi (2023).
4. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (2022). World Economic Outlook.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

5. Mahalliy iqtisodchilar maqolalari va tadqiqotlari (2023).
6. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (1995). *Economic Growth*. McGraw-Hill.
7. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
8. Abdullaev, A. (2020). "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar: Natijalar va istiqbollar." *Toshkent Iqtisodiyot Jurnali*.
9. Karimov, S. (2021). "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investitsiyalarni jalb qilish." *Iqtisodiy Tahlil*.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY TAHLILNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Do'stmuhammedova Nozima

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o‘qituvchisi

Yalgashov Umidjon

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar fakulteti,
Buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo’nalishi talabasi

Jaylovov Sherxon

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot va axborot texnologiyalar fakulteti,
Buxgalteriya hisobi va audit ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli tahlil qilinadi. Korxonalarining moliyaviy hisobotlari asosida resurslardan samarali foydalanish, shaffoflikni ta’minlash va investitsion jozibadorlikni oshirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy standartlar asosida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning ahamiyati va rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, iqtisodiy samaradorlik, xalqaro standartlar, investitsion jozibadorlik, shaffoflik.

Abstract

This article analyzes the role of accounting and financial analysis in increasing economic efficiency in Uzbekistan. The issues of effective use of resources, ensuring transparency and increasing investment attractiveness based on the financial statements of enterprises are covered. The importance and development prospects of accounting and financial analysis based on modern standards are studied.

Keywords. Accounting, financial analysis, economic efficiency, international standards, investment attractiveness, transparency.

KIRISH

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil korxonalar boshqaruvi va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

iqtisodiy islohotlar jarayonida buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati va amaliyotda duch kelinayotgan muammolarni hal qilish yo'llari tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar buxgalteriya sohasida tub o'zgarishlar olib kelmoqda. An'anaviy buxgalteriya amaliyotlari o'rnini avtomatlashtirilgan tizimlar egallab, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirdi. Ushbu maqola buxgalteriya sohasida raqamli transformatsiyaning ahamiyati, uning afzalliklari va amaliy qo'llanilishiga bag'ishlangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlarda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan. IFRS (International Financial Reporting Standards) tizimining amaliyoti va uning joriy qilinishi to'g'risidagi tadqiqotlar korxonalar boshqaruvining sifatini oshirishda muhimdir (Deloitte, 2020). Mahalliy iqtisodchi olimlar esa O'zbekistondagi moliyaviy tahlil amaliyotini rivojlantirish va buxgalteriya hisobi tizimini raqamlashtirish masalalariga e'tibor qaratmoqda. Biroq, shaffoflik va xalqaro standartlar talabiga to'liq moslashish hali ham dolzarb masalalardandir.

Raqamli transformatsiya va avtomatlashtirish masalalari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Brynjolfsson va McAfee (2014) texnologik inqilobning iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tahlil qilgan bo'lsa, Davenport (2018) raqamli texnologiyalarning buxgalteriya sohasidagi imkoniyatlarini o'rgangan. Mahalliy tadqiqotlar, jumladan, Niyozov (2021) va Akramov (2022) buxgalteriya tizimlarining modernizatsiyasi bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni taqdim etgan.

Mazkur maqolada iqtisodiy va statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Korxonalarining moliyaviy hisobotlari va davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajribalarni qiyosiy o'rganish va ekspertlar intervyusi o'tkazildi.

Mazkur tadqiqot quyidagi usullarga asoslanadi:

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;

Zamonaviy buxgalteriya tizimlarining amaliy qo'llanilishini o'rganish;

Sifatli va miqdoriy ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish.

NATIJALAR

O'zbekistonda buxgalteriya hisobi tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilmoqda, ammo kichik va o'rta korxonalar bu jarayonda ayrim qiyinchiliklarga duch kelmoqda.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Moliyaviy tahlilning korxonalar samaradorligiga ta'siri yuqori bo'lib, ayniqsa investitsion loyihalar uchun ahamiyati katta ekanligi aniqlangan.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish orqali buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil jarayonlarini optimallashtirish mumkin.

Ko'rsatkichlar	2022-yilgi qiymatlar	2023-yilgi qiymatlar	O'sish (%)
Xalqaro standartlar asosida hisobot bergan korxonalar ulushi	35%	45%	28.6%
Moliyaviy tahlilda zamonaviy dasturlar ulushi	50%	65%	30%
Soliqqa tortishda shaffoflik ko'rsatkichi	70%	78%	11.4%


Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:


Raqamli texnologiyalar buxgalteriya jarayonlarini 40-50% tezlashtiradi.

Moliyaviy hisobotlarning aniqligi oshib, xatoliklar sezilarli darajada kamayadi.

Bulutli texnologiyalar va sun'iy intellekt buxgalteriya sohasida keng qo'llanilmoqda.

Kichik va o'rta korxonalar uchun dasturiy ta'minotning narxi muhim to'siq bo'lib qolmoqda.





1-rasm. Raqamli transformatsiyaning buxgalteriya sohasiga ta'siri grafigi.

XULOSA


O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun muhimdir. Shuningdek, xalqaro standartlarni to'liq joriy qilish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va korxonalar shaffofligini ta'minlash yo'lida qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Buxgalteriya tizimi rivoji investitsion jozibadorlikni oshirish va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Buxgalteriya sohasida raqamli transformatsiya samaradorlikni oshirish va xatoliklarni kamaytirish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

Xodimlarni yangi texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish;

Moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha davlat ko'magini kuchaytirish;


Kichik korxonalar uchun qulay va arzon dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Deloitte (2020). International Financial Reporting Standards (IFRS) Adoption.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi (2023).
3. PricewaterhouseCoopers (PwC) hisobotlari (2022).
4. Xalqaro moliya tashkilotlari tavsiyalari va tahlillari.
5. Mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari (2023).
6. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age. W. W. Norton & Company.
7. Davenport, T. H. (2018). The AI Advantage: How to Put the Artificial Intelligence Revolution to Work. MIT Press.
8. Niyozov, A. (2021). "Raqqamli texnologiyalarning buxgalteriya sohasidagi o'rni." Toshkent Iqtisodiyot Jurnal.
9. Akramov, B. (2022). "Moliyaviy hisobotlarni avtomatlashtirish va uning samaradorligi." Iqtisodiy Tahlil.



BILISH JARAYONI FAOLLIGI VA NEYROPEDAGOGIK TADQIQOTLAR TALQINI

Jo‘rayeva Nargiza Zokir qizi

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali asisstanti

jorayevanargizahan@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada miya yarim sharlari xususiyatlari va maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim muassasalari o‘quvchilarining kognitiv jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlil qilinadi.

Abstract: This article analyzes researches devoted to studying the connection between features of the cerebral hemispheres and the cognitive process of pupils of preschool and primary educational institutions.

Аннотация: В данной статье осуществлён анализ исследований, посвящённых изучению связи особенностей полушарий головного мозга с познавательным процессом учащихся дошкольных и начальных образовательных учреждений.

Tayanch so‘zlar: afaziya, asimmetriya, giterxronlik, izomorf va hissiy anglash, ikonik belgilar, lateratsiya profili.

Key words: aphasia, asymmetry, heterochrony, isomorphic and emotional awareness, iconic signs, lateration profile.

Ключевые слова: афазия, асимметрия, гетерохрония, изоморфно-эмоциональная осведомленность, иконические признаки, латерационный профиль.

So‘nggi yillarda neyrofanlar – neyropsixologiya, neurobiologiya, neyroxirurgiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida bosh miya yarimsharlarining etakchiligi (dominantligi) turlicha bo‘lgan odamlarda ma‘lumotlarni qabul qilish, xotirada saqlash, tushunish va o‘zlashtirish strategiyalari turlicha ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan. Ushbu sohadagi nazariy tadqiqotlarning natijalari ta‘lim jarayoniga asta-sekinlik bilan tatbiq etilayotgan bo‘lsa-da, hozirga qadar aniq amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilmagan. Shu sababli neyropedagogika sohasidagi mavjud nazariy bilimlarni ta‘lim jarayonini intensivlashtirish, uni samarali tashkil etish hamda boshqarish uchun amaliyotga tatbiq



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

etish pedagogika sohasidagi olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Neyropedagogikaga oid bir qator ilmiy izlanishlarda (V. L. Deglin, T. V. Chernigovskaya, V. V. Menshutkin, V. A. Moskvina, N. V. Moskvina, N. N. Nikolayenko, V. V. Ivanov, R. Sperri, Y. D. Xomskaya, I. N. Bragina, T. A. Dobroxotova va boshq.) bosh miya yarimsharlarining qaysi biri etakchi bo'lishi odamlarning xulq-atvori va aqliy faoliyatlarida aks etishi tadqiq qilingan. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'quvchilarga ta'lim berish, ularning ma'lumotlarni qabul qilish va tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga G. Y. Vvedenskiy, A. V. Nikolskiy, V. A. Moskvina, V. I. Golodlarning ilmiy izlanishlari bag'ishlangan bo'lsa, chapaqay bolalarni ta'lim muassasalarida o'qitishni tashkil etish muammosi G. A. Antyxin, M. M. Bezrukix, N. N. Bogdanov, I. A. Makarev, V. A. Moskvina, A. I. Semenovichning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ta'lim jarayonida bolalar nutqining rivojlanishiga bosh miya asimmetriyasi hamda chap va o'ng yarimsharlar shikastlanishi oqibatlarining turlicha ta'sir etishi L. S. Basser, J. E. Bogen, B. T. Vouds, E. Lenneberg va A. Smitlarning izlanishlarida o'rganilgan. Tadqiqotchilar faqatgina inson bosh miya yarimsharlari asimmetriyasini o'rganish bilan chegaralanmasdan, miya faoliyatining ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlarini o'rganishga harakat qilganlar.

Izlanishlarda yarimsharlar asimmetriyasining ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liqligi hamda turli psixologik tipdagi o'quvchi-yoshlar guruhlarini testlashtirish orqali etakchi yarimsharni aniqlash va tahlil qilish masalalari yoritilgan hamda ta'lim muammolarini hal etishga umumiy yondashilgan bo'lib, xotira faoliyati, ma'lumotlarni qabul qilish va ularni anglash mexanizmlari tadqiq etilgan [1]. Respublikamizda mazkur sohada ta'lim sifatini oshirish (B. Xo'jayev) va bolalarni maktabda o'qishga tayyorlashning ayrim masalalari (J. G'ulomov, V. Anvarova) tadqiq etilgan [2]. Yuqorida nomi keltirilgan olimlar neyropedagogikaga, eng avvalo, maktab o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishdagi sustligi muammosining echimi sifatida qaraganlar. Bunda pedagoglar tomonidan neyropsixologiyaga oid bilimlarning ta'lim jarayonida qo'llanilishida, o'quvchilarning o'quv materiallari o'zlashtirishlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda individual lateratsiya profillari tashxis qilinib yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olinishi nazarda tutilgan.

R. Sperrining fikriga ko'ra, bilim berish jarayoni o'quvchilarda, asosan, tahliliy tafakkur va verbal ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, muhim noverbal






ko'nikmalarni rivojlantirish masalasi pedagoglarning diqqat markazidan chetda qolmoqda. Amaliyotda ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchi-yoshlar bosh miyasining o'ng yarimsharlar imkoniyatlarini etarlicha faollashtirilmasdan, asosan, chap yarimsharlar faoliyatiga ko'proq tayaniladi. Buning oqibatida ta'lim jarayonida faqat chap yarimsharlar funksiyalarini oddiy yo'l bilan faollashtirib, ushbu hol o'ng yarimsharlari funksiyalari bilan o'zaro ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqaradi, chunki shaxsning bilish faoliyatini tashkil etishda bosh miya yarimsharlari bir-biri bilan o'zaro hamkorlikda va hamjihatlikda faol ishlashi maqsadga muvofiq bo'lib, ushbu shartning bajarilishi bolalarga berilayotgan ma'lumotlarning intensiv o'zlashtirilishini ta'minlashi mumkin [3].

J. Bogen neyropedagogika sohasidagi izlanishlari natijasida bolalarga bilim berishda ularning chap yarimsharlarini faollashtirishga asoslangan an'anaviy verbal o'qitishning o'rniga o'ng yarimsharlarni faollashtirishga yo'naltirilgan obrazli, emotsional ta'limni taklif qilgan [4]. Bu an'anaviy ta'lim metodlari asosida o'qitish turli qiyinchiliklarga duch kelayotgan ayrim o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini engillashtirishi mumkin, biroq neyrofanlar sohasidagi tadqiqotlar natijalarini samarali qo'llashga qaratilgan aniq tavsiyalar hozirga qadar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmaganligi ushbu muammoning ijobiy hal etilishini sezilarli darajada sekinlashtirmoqda. Inson miyasi ma'lumotlarni nafaqat shunchaki eslab qolishi, balki tushunishi, shu ma'lumotlar asosida "savodli" tafakkur qilishi ham mumkin. Buning uchun miya insondagi mavjud bilimlarni tafakkur jarayoniga jalb etishi kerak bo'ladi.

A. S. Kudryavsev "Savodli" tafakkur deganda qandaydir oddiy, g'oyaviy ta'sir va talablarga asoslangan tafakkurni emas, insondagi ilk ma'lumotni yanada shakllantirib, undagi mavjud bilimlarni oshirishga yo'naltirilgan individual tafakkurni tushunishimiz kerak" [5], – deydi. Neyropedagogika sohasida izlanish olib borgan olimlarning fikridan kelib chiqib, ta'lim jarayonida bolalarga berilayotgan bilimlarni, bosh miyasidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish mexanizmlarini hisobga olgan holda, nafaqat xotirada saqlab qolishlariga, balki tushunishlariga yo'naltirilishi ularning bilish jarayonini ma'lum darajada optimallashtirish va faollashtirishga imkon beradi. To'g'ri, differensial ta'limga oid tadqiqotlarda amaliy tavsiyalar berilgan bo'lib, ular motivatsion, operatsion va natijaviy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Differensial ta'limning birinchi bosqichida o'ng yarimshari etakchi bo'lgan bolalar uchun u yoki bu faoliyatning ijtimoiy va amaliy ahamiyatiga urg'u berilishi kerak bo'lsa, chap





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

yarimsharlari faol bo‘lganlarga, ular uchun bilish jarayoni o‘ziga ko‘proq jalb qilganligi sababli bilish motivlariga tayanish muhim hisoblanadi. Chap yarimshari etakchi bo‘lgan bolalar uchun ikkinchi bosqichdagi asosiy vazifa – nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etilishiga urg‘u berish bo‘lib, o‘ng yarimshari etakchilar uchun berilgan topshiriqning to‘g‘ri bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatilishidan iborat. Uchinchi bosqichda o‘quvchilar bilimni aniq baholash vositalari tanlanadi. Bilimlarni baholashda o‘ng yarimshari etakchi bo‘lgan bolalarni, o‘z ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilishlariga imkon berish maqsadida og‘zaki so‘rov, chap yarimsharlari etakchi bo‘lgan o‘quvchilarning bilimlarini baholashda esa – yozma ish yoki “yopiq” turdagi savollardan foydalanish maqsadga muvofiq [6], – deb hisoblanadi. Tadqiqotlarda yarimsharlar etakchiligi yorqin namoyon bo‘ladigan o‘quvchilarning ma‘lumotlarni qabul qilishlarini osonlashtirishi mumkin bo‘lgan umumiy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, yarimsharlar sinxronizatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar taklif qilinmagan. Amaliyotda bosh miya yarimsharlari asimmetriyasi to‘g‘risida, asosan, elektrofiziologik tadqiqotlar natijalariga tayanib fikr yuritiladi. Yarimsharlar o‘rtasidagi asimmetriya tufayli insondagi juft organlar: ko‘z, quloq, qo‘l va oyoqlardan biri ko‘p hollarda etakchi bo‘lishi, ya‘ni yaxshiroq ko‘rishi, eshitishi, kuchli va baquvvatroq bo‘lishi hamda murakkab harakatlarni tezroq va aniqroq bajara olishi bilan ikkinchisidan farqlanadi. Bundan tashqari, yarimsharlardan birining etakchi bo‘lishi individ xotirasining tashkil etilishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi elektrofiziologik tadqiqotlar yordamida aniqlangan[7]. Yarimsharlar asimmetriyasi shaxsning xulq-atvori va aqliy faoliyatida bosh miya yarimsharlaridan birining etakchi bo‘lishi oqibatida yuzaga keladi. Bosh miya yarimsharlari funksional asimmetriyasiga oid (L. Y. Balonov, V. L. Deglin, Y. D. Xomskoy, N. N. Nikolayenko) ilmiy tadqiqotlarning natijalariga asosan, inson bosh miyasida olamning ikki xil belgilar modeli mavjud bo‘lib, shu belgilar yordamida u borliqni anglaydi. Borliq bevosita izomorf, hissiy anglash ikonik belgilar tizimiga asoslangan bo‘lib, uning mexanizmlari o‘ng yarimsharlarda jamlanadi. Borliqning tushunchalarda aks etishi esa hissiy tasavvurlarning mantiqiy tahliliga asoslangan bo‘lib, simvolik belgilar tizimiga tayanadi. Ushbu mexanizmlar inson bosh miyasining chap yarimsharlarida jamlangan[8]. Boshqacha qilib aytganda, murakkab kognitiv jarayonlarda har ikkala yarimshar ishtirok etadi, biroq har bir yarimshar bir-biriga o‘xshamagan o‘z tili va belgilari yordamida ma‘lumotlarni qabul qiladi hamda o‘zlashtiradi. Shu sababli yarimsharlarning har biri borliqni tushunishda, ma‘lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda turli belgilar tizimi va turli anglash strategiyalaridan





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

foydalanishi bilan farq qiladi. Asimmetriya esa bosh miya yarimsharlarining murakkab faoliyatlarini tashkil etishning universal tamoyili bo'lib, olamni anglash yarimsharlar tomonidan ikki xil strategiyada amalga oshirilganligi tufayli yuzaga keladi[9]. Endi yarimsharlar asimmetriyasining rivojlanishi bolaning ulg'ayishiga bog'liq ravishda kechishi yoki bunda yarimsharlar rivojlanishining giterxronligi sodir bo'lishi masalasiga to'xtalamiz. Bolalarning neyropsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan olimlar bosh miya yarimsharlari faoliyatining bola jinsiga bog'liqligini aniqlagan. Olimlarning ta'kidlashicha, turli jinsdagi bolalar psixikasidagi farq ular hayotining birinchi yilidanoq xulq-atvorlarida namoyon bo'lib, o'g'il va qiz bolalarda psixik jarayonlarning borishidagi farq bosh miya yarimsharlari funksiyalarining birbiridan keskin farq qilishi bilan bog'liq bo'lar ekan. Bunga kattalarning o'g'il va qiz bolalarga nisbatan munosabatlari ularning kichik yoshlaridanoq turlicha bo'lishida ham o'z aksini topadi. Kattalarning o'g'il bolalarga nisbatan birmuncha talabchan hamda qiz bolalar bilan yumshoq muomalada bo'lishlari, bolalar faoliyatini baholashda esa o'g'il bolalar uchun baho mazmunining muhimligi, qizlar uchun esa emotsional muloqot, ya'ni ularni kim va qanday baholashi muhim ahamiyatga ega ekanligini misol tariqasida ko'rsatish mumkin[10]. Bundan tashqari, kichik yoshdanoq turli jinsdagi bolalarning fiziologik jihatlari ham bir-biridan farq qiladi, ya'ni qiz bolalarning teri va eshitish organlari o'g'il bolalarnikiga qaraganda yuzaroqda joylashgan bo'lib nisbatan sezitivligi bilan ajralib tursa, o'g'il bolalarning to'laqonli psixik rivojlanishlari uchun kengroq muhit kerakligiga e'tibor qaratish mumkin. O'g'il bola qaysi ishi kattalarga ma'qul emasligi va nima uchun yoqmaganligini bilishga harakat qilganida uning bosh miyasidagi ayrim qismlari faollashsa, qizlarda har qanday bahoga emotsional aks ta'sir (reaksiya) sodir bo'lib, ular bosh miyasining barcha qismlari faollashadi[11]. L. S. Basserning bolalar nutqini bosh miya asimmetriyasi bilan bog'liqligini o'rganishga qaratilgan nevrologiya sohasidagi tadqiqoti jarayonida, bosh miyasi shikastlangan ikki yoshgacha bo'lgan bolalar o'rganilgan bo'lib, ularning yarmida nutq o'z vaqtida paydo bo'lganligi aniqlangan. Bolalarning qolgan ikkinchi yarmida esa nutq paydo bo'lishi birmuncha kechikkanligi qayd etilgan. Bosh miyasining o'ng yoki chap yarimsharlari zararlanishi bilan bog'liq bo'lgan e'tiborga loyiq tafovutlar tadqiqot davomida olim tomonidan kuzatilmaganligi bois, ikki yoshgacha bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishida bosh miya yarimsharlari asimmetriyasi hali etarlicha to'liq shakllanmaydi, degan taxmin ilgari surilgan, biroq 2-10 yosh oralig'ida bosh miyasi shikastlangan bolalar nutqining rivojlanishida yarimsharlarining qaysi tomoni





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

shikastlanganligi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim farqlar mavjudligi aniqlangan, ya‘ni chap yarimsharlari shikastlangan bolalarning 85 foizida nutq buzilish holati – afaziya kuzatilgan bo‘lsa, o‘ng yarimsharlari shikastlangan bolalarning faqat 45 foizida ushbu holat qayd etilgan[12].

Afaziya (a + phasis – nutq) bosh miya etakchi (dominant) yarimshari po‘stlog‘ining lokal shikastlanishi oqibatida nutq faoliyatining turli ko‘rinishlaridagi tizimli buzilishidir. Lateralizatsiyaga oid izlanishlarda inson bosh miyasining chap va o‘ng yarimsharlari shikastlanishining oqibatlari turlicha ekanligiga qaramasdan, kattalar va o‘smirlarda afaziya holatining sodir bo‘lish chastotalari o‘zaro farq qilishi aniqlangan. Masalan, o‘smirlarda afaziya holati o‘ng yarimshar shikastlanganidagiga qaraganda chap yarimshari shikastlanganida nisbatan ko‘proq sodir bo‘ladi. Tadqiqot natijalari lateralizatsiya jarayonining bola tili chiqqan davrda boshlanishini, biroq jinsiy etuklik davrida tugamasligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, voyaga etish jarayoni shaxsda yangi tilni o‘zlashtirish qobiliyatini rivojlantirishning kritik davri bo‘lib, bunda u faqatgina til muhitida bo‘lishi va shu tilda lahjasiz (aksentsiz) gapirishi etarli, – deb xulosa qilinadi[13]. Mazkur xulosani B. T. Vouds va H. L. Teuber quvvatlab, nutqi endigina shakllanayotgan bolalarda afaziya holati ular bosh miya yarimsharining o‘ng tomoni emas, balki aynin chap tomoni shikastlanganida ko‘proq sodir bo‘lishini tajriba yo‘li bilan aniqlagan[14].

A. Smit biron-bir sabab bilan bosh miya yarimsharlari shikastlangan bo‘lsa, uning funksiyalarining tiklanishi shaxs yoshiga bevosita bog‘liq ekanligini aniqlagan. Bunda yosh bolalarda o‘ng yarimsharlarni faollashtirish imkoni katta yoshdagilarga qaraganda engilroq kechishi aniqlangan[15]. Ta‘kidlash joizki, bosh miya yarimsharlari o‘rtasidagi anatomik va funksional asimetriyalarning o‘zaro munosabatlari xarakteri hozirga qadar to‘liq o‘rganilmagan. Shunday qilib, ta‘lim jarayonini tashkil etishda bolalar bosh miyasining o‘ng yarimsharlari imkoniyatlarini etarlicha faollashtirilmasdan, chap yarimsharlar faoliyatiga ko‘proq tayanilishi faqat chap yarimsharlar funksiyalarini faollashtirib, o‘ng yarimsharlar funksiyalari bilan o‘zaro tafovutli vaziyatlarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin. Bosh miya yarimsharlarining birbiri bilan o‘zaro hamkorlikda va hamjihatlikda faol ishlashi esa bola tomonidan uning bilish faoliyatini tashkil etish maqsadida berilayotgan ma‘lumotlarni intensiv o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi.

Bosh miya yarimsharlarining har ikkalasi murakkab kognitiv jarayonlarda ishtirok etsa-da, ma‘lumotlarni qabul qilish va o‘zlashtirishda turli belgilar tizimi va turli anglash






ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

strategiyalaridan foydalanadi. Bu esa bosh miya yarimsharlari asimmetriyasini yuzaga keltiradi. Bolaning xulqatvori va aqliy faoliyati yarimsharlardan qaysi birining etakchi bo'lishiga bog'liq. Bu esa pedagoglar oldiga boladagi shu o'ziga xos betakrorlikni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish vazifasini qo'yadi. Buning uchun pedagoglar bola bosh miyasining yarimsharlari o'rtasidagi asimmetriyani aniqlay olishlari hamda ma'lumotlarni yarimsharlar tomonidan o'zlashtirish mexanizmini, uning o'ziga xos jihatlarini ko'ra bilishlari va ta'lim jarayonini tashkil etishda ushbu ma'lumotlardan samarali foydalanishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.


1. Тункун Я. А. Основы нейропедагогики: история, теория и практика. <http://cyberleninka.ru/article/n/osnovy-neuropedagogiki-istoriya-teoriya-i-praktika>
2. Ходжаев Б. Х. Нейропедагогик билимлардан фойдаланиш орқали таълим сифатини ошириш // Узлуксиз таълим сифат ва самарадорлигини оширишнинг назарий-услубий муаммолари. – Самарқанд, 2010. – Б. 174-175; Фуломов Ж. Р., Анварова В. Ж. Болаларнинг нейропедагогик хусусиятларини инновацион таълим муҳити шароитида ривожлантириш // Узлуксиз таълим тизимида ҳамкорлик педагогикаси. – Тошкент, 2014. – Б. 192-193.
3. Sperry R. W. Left brain, right brain. Saturday Review, 1975. August. 9. – P. 30-33. http://jfa.arch.metu.edu.tr/archive/0258-5316/1975/cilt01/sayi_2/263-270.pdf
4. Bogen J. E. The Other Side of the Brain. VII: Some Educational Aspects of Hemispheric Specialization, UCLA, Educator, 17, 24-32 (1975).
5. Кудрявцев А. С. Что значит “грамотно” мыслить // Инновации в образовании. – Москва, 2003. – № 4. – С. 32-37.
